ISNN 3030-3907

2025/1
VOLUME 1

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY ELEKTRON JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2025/1 VOLUME 1

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Bosh muharrir:
Temirov Alisher Hoshim o'g'li
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Bosh muharrir o'rinbosari:
Izzatov Diyor Hikmatillo o'g'li
Tahririyat hay'ati *a'zolari:*
Bozorov G'ayrat Rashidovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor
Do'stov Hamro
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Yuldashev Narbek Xudoynazarovich,
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Adizov Bobur Zamirovich
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
G'aybullayev Saidjon Abdusalimovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Komilov Murodillo Zoirovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Xo'jaqulov Aziz Fayzullayevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Narziyev Umid Zaripovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texn ologiya instituti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texn ologiya instituti, dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o'g'li
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o'g'li
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
To'raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Sapashov Ikramjan Yaumitbayevich
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti , dotsent.
Sharipov Baxtiyor Zaripovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Naubeev Temirbek Xasetullayevich
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti , dotsent.
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
To'rayev Tolib Bozorovich
Toshkent kimyo texnologiya instituti, professor
Axmedova Ozoda Bahronovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Toshev Sherzod Orziyevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, DSc, professor
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Hikmatov Doniyor Nematovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Navro'zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
To'xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Xujaqulov Kamoliddin Ramazonovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo'raqulovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent
Boboqulov Farhod Baxtiyor o'g'li
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Asadova Dilnavoz Fayzullayevna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Fozilov Hasan Sadriddin o'g'li
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.

ISSN 3030-3907

Tahririyat a’zolarning to’liq ro’yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o’zgartirish hamda qo’shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o’tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar.

Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

MUNDARIJA

1	O’zbekiston Respublikasining turli hududlarida o’sadigan phlomis solificolia regel o’simligining yer usti qismlarida mavjud bo’lgan suvda eruvchi vitaminlar miqdorini qiyosiy o’rganish *Xaitbayev Alisher Homidovich* *To’xtamatova Shahzoda Sodiqjon qizi*	8
2	Professional ta’lim muassasalarida ingliz tilini kasbga yo‘naltirib o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari *Xolxodjayeva Dilfuza Shoakrom qizi*	13
3	"Big Data" texnologiyalarining raqamli biznesdagi ahamiyati: tahlil va takliflar *Temirov Karimjon Yunusali o’g’li* *Ne’matov Abdug’ani Ikrom o’g’li*	17
4	Maktablardagi madaniy muhitda o‘quvchilarni rivojlantirish usullari, metodlari va texnologiyalari *Malikova Dilraboxon.*	22
5	Importance of choosing appropriate textbook. *Allayarova Zebiniso Boymuratovna* *Elboyeva Shaxnoza Azim qizi*	27
6	Fun ways to teach pronunciation for young learners. *Allayarova Zebiniso Boymuratovna* *Elboyeva Shaxnoza Azim qizi*	32
7	Qurilishda "hajm" usulini joriy qilish va chet el tajribasi *Rajabova Azizaxon Shukurovna*	37
8	Macro and microelements of the *cynara scolymus* l. Plant *Kh.Kh.Dolimov*	43
9	Water-soluble vitamins, flavonoids of the cynara scolymus l. Plant *Kh.Kh.Dolimov*	51
10	Mahalliy makkajo‘xori donlarining texnologik xossalarini tadqiq qilish *Yuldasheva Sh.J.* *Ismatova SH.N.* *Ismatova N.N.* *Bakayeva M.R.*	58
11	Challenges of learning a foreign language and ways of overcoming obstacles to achieve success *Nazarova Ozoda Shavkatovna*	66

ISSN 3030-3907

12	Analysis of the fatty acid composition of flaxseed oil treated with an electric pulse field *Narziyev M.S.* *Yuldasheva Sh.J.* *Ismatova N.N.*	71
13	Qamish sellyulozasidan mikrokristallik sellyuloza sintez qilish va strukturasini o‘rganish *Umarova Vasila Kabilevna* *Baxtiyorov Qodir Botirbek o‘g‘li* *Primqulov Maxmut Temurovich*	76
14	Пути синтеза производных инулина содержащие аминогруппы *Д.С. Камалова* *Х.О. Абдуллаев* *А.Ш. Хусенов* *Г.Рахманбердиев*	84
15	Jeta – 1 markali avia kerosin olish texnologik tizimi tahlili *Shodiyev Diyorbek Xusan o‘g‘li* *Izzatov Diyor Hikmatillo o’g’li* *Temirov Alisher Hoshim o’g’li*	91
16	O‘zbekistonning Ertoshsoy hududida o‘suvchi erbahor o‘simligining kimyoviy tarkibi va tahlili. *Ismoilov Mo‘minjon Yusupovich* *Qurbonaliyev Komronbek Azamat o‘g‘li*	102
17	Mis (II) tereftalat tuzi sintezi va uning tadqiqoti *Ismatov Sunatullo Shamsulloyevich* *Mahammadiyev Humoyiddin Odil o‘g‘li* *Choriyeva Zarina Qurbonmurod qizi* *Musirmonova Shahnoza Chorshanbi qizi* *Karimov Xusniddin Rustamovich*	108
18	Multimediali dasturiy vositalar asosida talabalarning mustaqil ta’lim olish faoliyatini takomillashtirish *Rayimova Dilnavoz Dilmurodovna* *Nematova Dilrabo Ibodullo qizi*	114
19	Kraxmal asosidagi biologik parchalanuvchi polimerlarni olish va termik, mexanik xossalarini o'rganish. *Qarshiyev Ma’rufjon Tolipovich* *Nurqulov Fayzulla Nurmuminovich.* *Djalilov Abdulaxat Turapovich*	120

ISSN 3030-3907

20	“Tas” tuzli tiqinlar hosil bo’lishiga qarshi ingibitorning sintez qilish texnologik tizimi *Axmedov Voxid Nizomovich* *Rayimov Zuhriddin Xayriddin o’g’li* *Qurbonov Farxod Po’latovich*	126
21	Mo‘yna sanoatida mahalliy o‘simlik oshlovchilarni qo‘llash *Temirova Matlab Ibodovna* *Rayimov Zuhriddin Xayriddin o’g’li* *Sultonova Dilsora Rashid qizi*	133
22	Tabiiy bo’yoqlar va ularning qo’llanilishi *Temirova Matlab Ibodovna* *Rayimov Zuhriddin Xayriddin o’g’li* *Kurbanova Niginabonu Toxirovna*	139
23	Kaliy xlorid olish jarayonida ajralib chiqadigan loyli shlam chiqqindisini turli xil qo’shimchalar bilan qayta ishlash usulini o’rganish *Shodiyev.A.Z.* *Maxmudov.R.A.*	144

ISSN 3030-3907

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TURLI HUDUDLARIDA O’SADIGAN PHLOMIS SOLIFICOLIA REGEL O’SIMLIGINING YER USTI QISMLARIDA MAVJUD BO’LGAN SUVDA ERUVCHI VITAMINLAR MIQDORINI QIYOSIY O’RGANISH

Xaitbayev Alisher Homidovich[1],
To’xtamatova Shahzoda Sodiqjon qizi[2]
[1]O’zbekiston Milliy Universiteti
[2]Impuls Tibbiyot Instituti

Annotatsiya. Ushbu ilmiy tadqiqot ishida yuqori samarali suyuq xromatografiya usuli yordamida O‘zbekiston Respublikasi turli hududlarining tog’ mintaqasida o'sadigan *Phlomis Solificolia Regel* o'simligining vegetativ organlarida uchraydigan eruvchan vitaminlar miqdori tahlil qilingan. Olingan natijalarga ko'ra, Phlomis Solificolia Regel o'simligining yuqori qismlarida vitaminlar miqdori o'simlikning o'sish iqlimiga qarab o'zgarib turadi.

Kalit so'zlar: yuqori samarali suyuq xromatografiya (YuSSX), vitamin, saraton, diabet, allergiya, antioksidant, antimikrobial.

Abstract. In this scientific research work, the results presented above highlight the amount of soluble vitamins extracted from the vegetative parts of the *Phlomis solificolia Regel* plant, which grows in the mountainous regions of various areas of the Republic of Uzbekistan. The analysis was conducted using the high-performance liquid chromatography (HPLC) method. As evident from the results provided below, the quantity of vitamins found in the vegetative parts of the *Phlomis solificolia Regel* plant varies depending on the climatic conditions of its growth.

Keywords: high-performance liquid chromatography (HPLC), vitamins, cancer, diabetes, allergy, antioxidant, antimicrobial.

Аннотация. В данном научном исследовании методом высокоэффективной жидкостной хроматографии (ВЭЖХ) проанализировано количество растворимых витаминов, содержащихся в вегетативных органах растения *Phlomis solificolia Regel,* произрастающего в горных регионах различных областей Республики Узбекистан. Полученные результаты показывают, что содержание витаминов в верхних частях растения *Phlomis solificolia Regel* изменяется в зависимости от климатических условий его произрастания.

Ключевые слова: высокоэффективная жидкостная хроматография (ВЭЖХ), витамины, рак, диабет, аллергия, антиоксидант, антимикробный.

Kirish

Adabiyot ma’lumotlariga ko’ra, *Phlomis Solificolia Regel* Lamiaceae oilasiga mansub bo’lgan endemik o’simlik sanaladi. *Phlomis* turkumiga mansub bo’lgan o’simliklar Turkiya, Shimoliy Afrika, Yevropa va Osiyoda o'sadigan 100 dan

ISSN 3030-3907


ko’proq turga ega. Eron davlatlarida endemik tur sifatida keng tarqalgan. An'anaviy tibbiyotda og'riq qoldiruvchi vosita sifatida oshqozon og'rig'i va shamollashni davolashda qo'llaniladi. Ushbu turkumga mansub bo’lgan o’simliklar antioksidant, antimikrobial, antidiabetik, qon-tomir tizimini himoya qilish, yallig'lanishga qarshi, allergiyaga qarshi, saratonga qarshi, gemorroyni davolash va og’riq qoldiruvchi kabi qimmatli biologik xususiyatlarga ega.

Ushbu turkum o’simliklarining faoliyati asosan diabetda oksidlovchi stressni kamaytirish yoki glyukoza metabolizmiga aloqador fermentlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirish orqali jigar va oshqozon osti bezi yaxlitligini himoya qilish hisoblanadi.

Phlomis ekstraktlaridan ajratib olingan asosiy birikmalar flavonoidlar, iridoidlar va feniletil spirt hisoblanadi.

Olingan natijalar tahlili

Tadqiqot ishimizda *Phlomis Solificolia Regel* o’simligining bargi tarkibida uchrovchi suvda eruvchi vitaminlar va ularning miqdoriy ko’rsatgichi yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usulidan foydalanib aniqlandi va xulosalar olindi.



1-rasm. ***Suvda eruvchan vitaminlar standart namunalarining xromatogrammasi.***

1-Jadval.


Toshkent va Qashqadaryo hududlarida tarqalgan Phlomis Solificolia Regel o'simligining vitaminlar tarkibi va miqdori.

№	Namunalar	Miqdoriy tarkib mg/100g						
		B1	B6	B9	PP	C	B2	B12


ISSN 3030-3907

1	*Phlomis Solificolia Regel* (Toshkent iqlimida o'sgan)	-	-	1,459	-	101,449	6,439	10,941
2	*Phlomis Solificolia Regel* (Qashqadaryo iqlimida o'sgan)	-	-	0,821	-	79,298	3,798	9,378

Taxlil natijalariga binoan, ikki xil iqlimda o'sgan na'munada ham B guruhga mansub bo'lgan vitaminlar: B9, C, B2, B12 mavjud ekanligi aniqlandi. Mavjud vitaminlar taqqoslanganda C vitamin miqdor jihatdan ustunlik qiladi. B1, B6 va PP vitaminlar miqdori aniqlanmadi.



2-rasm. *Phlomis Solificolia Regel.*
Toshkent viloyati iqlimida vitaminlar miqdori.



3-rasm. *Phlomis Solificolia Regel.*
Qashqadaryo viloyati iqlimida vitaminlar miqdori.

ISSN 3030-3907

Yuqorida keltirilgan diagrammalardan, Toshkent Viloyati iqlimida o'sgan o'simlik barglarida Qashqadaryo Viloyatida o'sgan na'munalarga qaraganda vitaminlar miqdori ko'proq bo'lishi ma'lum bo'ldi. B1, B6 va PP vitaminlar ikki hududdagi na'munalarda ham aniqlanmadi. Tuproqning sho'rlanishi o'simlikning kimyoviy tarkibiga miqdor jihatdan ta'sir qiladi

Tajriba qismi

Phlomis Solificolia Regel o'simligining bargi tarkibida uchrovchi suvda eruvchan vitaminlarni tahlil qilish ekstraksiya, filtratsiya va quritish jarayonlaridan so'ng yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YuSSX) yordamida gradientli elyuatsiya rejimi va diod-matrisa detektori (DMD) ishlatilib o'tkazildi. Harakatlanuvchi faza sifatida asetonitril va bufer eritma ishlatildi. Spektral ma'lumotlar 200 dan 400 nm gacha bo'lgan spektral diapazonda o'rganildi.

Xromatografiya ususlida harakatlanuvchi faza (gradient rejimi) – asetonitril – bufer eritmasi pH=2.92 (4% : 96%) 0-6 min, (10% : 90%) 6-9 min, (20% : 80%) 9-15 min, (4% : 96%) 15-20 min.

Inyeksiya hajmi – 10 mkl.

Harakatlanuvchi fazaning tezligi – 0,75 ml/min.

Kolonka – Eclipse XDB – C18, 5,0 mkm, 4,6x250 mm.

Detektor – DMD, to'lqin uzunliklari 272, 292, 254, 297, 360 nm.

Xulosa

Phlomis Solificolia Regel o'simligining eruvchan vitaminlari miqdori O'zbekiston Respublikasining turli mintaqalaridan, jumladan, Toshkent viloyati va Qashqadaryo viloyatining tog'li hududlaridan olingan barglarda taqqosiy o'rganildi. O'simlik tarkibida C vitamin miqdori B guruhiga mansub vitaminlarga qaraganda ko'proq ekanligi o'rganildi. Ikki hududda ham B1, B6 va PP vitaminlar miqdori umuman aniqlanmadi. Viloyatlar kesimida esa, Toshkent viloyati iqlimida o'sgan o'simlikda mavjud bo'lgan B_9 , C , B_2, B_{12} vitaminlar miqdori Qashqadaryo viloyatida o'sgan o'simlik miqdoriga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Phytochemical analysis and antibacterial/ antifungal activity of the essential oil of Phlomis olivieri Benth in Iran/ Mansureh Ghavam/ Original article 08 march 2023. Volume 31, pages 2493-2504.
2. Phytochemistry and biological activities of Phlomis species/ Ilef Limem-Ben Amor, Jihed Boubaker, Mohamed Ben Sgaier, Ines Skandrani, Wissem Bhouri, Aicha Neffati, Soumaya Kilani, Ines Bouhlel, Kamel Ghedira, Leila

ISSN 3030-3907

Chekir Ghedira/ Journal of Etnopharmacology. Volume 125, issue 2, 7-september 2009, pages 183-202.

3. Anticandidal Pimaradiene Diterpene From Phlomis Essential oils/ Betul Demirci, Masao Toyota, Faith Demirci, Mehmet Dadandi, Husnu Can Baser/ Comptes Rendus Chimie / Volune 12, issue 5 may 2009 Pages 612-621.

ISSN 3030-3907

PROFESSIONAL TA’LIM MUASSASALARIDA INGLIZ TILINI KASBGA YO‘NALTIRIB O‘QITISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Xolxodjayeva Dilfuza Shoakrom qizi
Professional ta’limni rivojlantirish instituti tayanch doktoranti
dilfuzaxolxodjaeva5@gmail.com

Annotatsiya. Ingliz tili bugungi kunda global kommunikatsiya, ilm-fan, biznes va texnologiya sohalarida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, professional ta’lim muassasalarida ingliz tilini kasbga yo‘naltirib o‘qitish – bu mutaxassislarni nafaqat til bilimiga, balki ularning kasbiy kompetensiyalariga ham e'tibor qaratadigan bir jarayondir. Har bir mutaxassislik bo‘yicha ingliz tilini o‘qitishning o‘ziga xos ahamiyati mavjud, chunki ko‘plab sohalar global miqyosda rivojlanmoqda, yangi texnologiyalar jadal sur'atlar bilan kirib kelmoqda, va ko‘plab texnik hujjatlar ingliz tilida taqdim etiladi. Ushbu maqolada, professional ta’lim muassasalarida ingliz tilini kasbga yo‘naltirib o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari, uning metodikasi va ta'lim jarayoniga ta'siri haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so’zlar: kasbga yo’naltirib o’qitish, kognitiv yondashuv, konstruktiv yondashuv, kompetensiya yondashuvi, Problem-based learning (PBL), ro’l o‘ynash metodikasi (role-play).

Annotation. English today has a prominent place in the fields of global Communication, Science, business and technology. Especially in professional educational institutions, teaching English with a professional orientation is a process that focuses professionals not only on language knowledge, but also on their professional competencies. There is a special importance of teaching English in each specialty, since many areas are developing globally, new technologies are entering at an accelerated pace, and many technical documents are presented in English. This article will talk about the scientific and theoretical foundations of teaching English in professional educational institutions, its methodology and impact on the educational process.

Keywords: career-oriented teaching, cognitive approach, constructive approach, competence approach, Problem-based learning (PBL), roll-play methodology (role-play).

Аннотация. Английский язык сегодня играет важную роль в глобальных коммуникациях, науке, бизнесе и технологиях. Профессионально – ориентированное обучение английскому языку, особенно в профессиональных учебных заведениях, - это процесс, который привлекает профессионалов не только к языковым знаниям, но и к их профессиональной компетенции. Преподавание английского языка по каждой специальности имеет свое значение, поскольку многие отрасли развиваются в глобальном масштабе, новые технологии внедряются быстрыми темпами, и многие

ISSN 3030-3907

технические документы представлены на английском языке. В данной статье рассматриваются научно-теоретические основы профориентационного обучения английскому языку в профессиональных учебных заведениях, его методика и влияние на образовательный процесс.

Ключевые слова: профориентационное обучение, когнитивный подход, конструктивный подход, компетентностный подход, проблемно-ориентированное обучение (PBL), ролевая методология (ролевая игра).

Ingliz tilini kasbga yo‘naltirib o‘qitish, bugungi kunda global mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun muhim omilga aylangan. Biroq, ingliz tilini kasbga yo‘naltirib o‘qitish jarayoni nafaqat til o‘rganish, balki o‘quvchilarga o‘z mutaxassisliklarini tushunishda va ularga mos tilni qo‘llashda yordam berishni ham o‘z ichiga oladi. Bu yondashuv, o‘quvchilarga ingliz tilining kasbiy va texnik jihatlarini chuqur tushunishga imkon beradi. Professional ta’lim muassasalarida ingliz tilini kasbga yo‘naltirib o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari nafaqat tilning grammatik va leksik aspektlarini, balki uning kasbiy faoliyatdagi o‘rni va ahamiyatini ham o‘z ichiga oladi.

Ingliz tilini kasbga yo‘naltirib o‘qitishning ilmiy asoslari, asosan, til o‘rganishning kognitiv va konstruktiv yondashuvlariga asoslanadi.



1.1- rasm. ***Til o‘rganishning kognitiv va konstruktiv yondashuvlari.***

Kognitiv yondashuv, tilni o‘rganishda o‘quvchining miyasidagi bilimlarni qayta ishlash va yangi bilimlarni tuzish jarayoniga e’tibor qaratadi. Kasbiy ingliz tilini o‘rgatishda bu yondashuv, o‘quvchilarni nafaqat tilni o‘rganishga, balki kasbiy

ISSN 3030-3907

vazifalar uchun zarur bo‘lgan tilga oid ko‘nikmalarni rivojlantirishga ham yo‘naltiradi. Masalan, avtomobil sanoatidagi mutaxassislar ingliz tilini o‘rganish orqali nafaqat tilni, balki texnik terminologiyani, amaliy ko‘nikmalarni va global mehnat bozoridagi kommunikatsiyani o‘rganadilar.

Konstruktiv yondashuv esa o‘quvchilarni o‘z tajribalariga asoslanib bilim olishga undaydi. Bu yondashuv til o‘rganish jarayonida o‘quvchining amaliyotni va real hayotdagi vaziyatlarni tahlil qilishni o‘rgatadi. Kasbiy ingliz tilini o‘qitishda bu yondashuv orqali, o‘quvchilar o‘z mutaxassisliklarida, masalan, avtomobil transporti, tibbiyot yoki muhandislik kabi sohalarda, ingliz tilini samarali ishlatishning usullarini o‘rganadilar.

Kasbiy ingliz tilini o‘qitishda metodik yondashuvlar, ta’lim jarayonida nafaqat til bilimlarini, balki kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan. **Kompetensiya yondashuvi** kasbiy ingliz tilini o‘rganishda eng muhim elementlardan biridir. Bu yondashuv tilni faqat grammatik va leksik nuqtai nazardan emas, balki uni kasbiy vazifalarda samarali qo‘llash nuqtai nazaridan ham o‘rgatadi. O‘quvchilar nafaqat so‘z boyligi, balki ularni real ish sharoitida qanday ishlatishni o‘rganadilar.

Metodik yondashuvda **problem-based learning (PBL)**[1] (muammo asosida o‘qitish) metodini qo‘llash samarali bo‘ladi. Bu metodda o‘quvchilar, muammolarni hal qilish jarayonida ingliz tilini o‘rganadilar. Masalan, avtomobil sanoati bo‘yicha o‘quvchilar biron bir texnik muammoni, masalan, dvigatelni diagnostika qilishni ingliz tilida yechishga harakat qilishadi. Bu jarayon nafaqat tilni o‘rgatadi, balki o‘quvchilarning kasbiy bilimlarini ham mustahkamlashga yordam beradi.

Shuningdek, **rol o‘ynash (role-play)**[2] metodikasi ham kasbiy ingliz tilini o‘qitishda keng qo‘llaniladi. O‘quvchilar turli kasbiy vaziyatlarni ingliz tilida o‘ynash orqali o‘zaro muloqot qilish va kasbiy terminologiyadan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Kasbiy ingliz tilini o‘qitishda **fanlararo (interdisciplinary) yondashuvi** ham muhim ahamiyatga ega. Fanlararo yondashuvi til o‘rganishda turli fanlar va sohalarni birlashtirishni nazarda tutadi. Kasbiy ingliz tilini o‘qitish jarayonida bu yondashuv, tilni faqat tilshunoslik nuqtai nazaridan emas, balki o‘quvchining o‘z mutaxassisligiga xos bilimlar bilan birgalikda o‘rgatishni ta’minlaydi.

Masalan, avtomobil sanoati mutaxassislari uchun ingliz tilini o‘rgatish, ularga avtomobil texnologiyasi va uning rivojlanishini tushunishga yordam berishi kerak. Bu, nafaqat texnik iboralarni o‘rganishni, balki global avtomobil sanoatidagi yangi tendensiyalarni va innovatsiyalarni tushunishni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek,

[1] https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/
[2] Matkarimova B.H Applying role-plays in a teaching process: advantages and disadvantages. 60p

ISSN 3030-3907

ingliz tilida ishlovchi xalqaro kompaniyalar va ishlab chiqaruvchilar bilan muloqot qilishda zarur bo‘ladigan ko‘nikmalarni rivojlantirish mumkin bo‘ladi.

Kasbiy ingliz tilini o‘qitishda, **individual yondashuv**[3] tamoyili muhim ahamiyatga ega. Har bir o‘quvchi o‘zining kasbiy ehtiyojlari va qiziqishlariga ko‘ra, tilni o‘rganadi. O‘qituvchi o‘quvchining mutaxassisligi va uning rivojlanish darajasiga qarab, ta’limni individual tarzda tashkil etishi kerak. Bu yondashuv o‘quvchining o‘ziga xos ehtiyojlarini qondiradi va samarali o‘rganishni ta’minlaydi. Shuningdek, **aktiv o‘qitish** tamoyili ham muhimdir. O‘quvchilarni faollashtirish, o‘quv jarayoniga joriy etish va real ish sharoitlarini simulyatsiya qilish orqali, ingliz tilini o‘rgatishda samaradorlikni oshirish mumkin. Bu orqali o‘quvchilar, o‘z kasbiy faoliyatini ingliz tilida bajarish ko‘nikmalarini egallaydi.

Ingliz tilini kasbga yo‘naltirib o‘qitish nafaqat tilni o‘rgatish, balki o‘quvchining kasbiy bilimlarini ham rivojlantirishga qaratilgan kompleks jarayondir. Ushbu jarayon ilmiy-nazariy asoslar va metodik yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Kasbiy ingliz tilini o‘rgatishda innovatsion yondashuvlar, Fanlararo, konstruktiv va kognitiv yondashuvlar o‘quvchilarning kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli bo‘lishlariga imkon yaratadi. Bunday yondashuvlar, o‘quvchilarning global kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi va ularni xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/[1]
2. Matkarimova B.H Applying role-plays in a teaching process: advantages and disadvantages. 60p
3. S.T. Sattorova Ingliz tilini o’qitishda individual yondashuv. Oriental Renaissance: Innovative,

educational, natural and social sciences.685 b

[3] S.T. Sattorova Ingliz tilini o’qitishda individual yondashuv. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.685 b

ISSN 3030-3907

"Big Data" TEXNOLOGIYALARINING RAQAMLI BIZNESDAGI AHAMIYATI: TAHLIL VA TAKLIFLAR

Temirov Karimjon Yunusali o'g'li
Ne'matov Abdug'ani Ikrom o'g'li
Millat Umidi unversiteti BA 301-guruh talabasi

Annotatsiya: Maqola "Big Data" texnologiyalarining zamonaviy raqamli biznesga tadbiq etishdagi muhim jihatlarini tahlil qiladi. Ushbu ma'lumotlar hajmi, xilma-xlligi, tezligi, haqiqiyligi va qiymati bilan tavsiflanadi. Tadqiqotda deduktiv va analitik metodlar yordamida "Big Data"ning biznes jarayonlarini optimallashtirish, samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan imkoniyatlari o'rganildi.Ushbu texnologiyalar jarayonlarni avtomatlashtirish, samaradorlikni oshirish va biznes jarayonlarini optimallashtirishda muhim rol o'ynaydi. Natijalar ko'rsatdiki, ma'lumotlar asosida qarorlar qabul qilish biznes jarayonlarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu maqola texnologiyaning imkoniyatlarini chuqurroq tushunish uchun ilmiy va amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: Big Data, Digital Business, Data Analytics, Process Optimization, Innovation Technologies, Data Management.

Аннотация: Статья рассматривает ключевые аспекты внедрения технологии Big Data в современный цифровой бизнес. Эти технологии играют важную роль в автоматизации процессов, повышении эффективности и оптимизации бизнес-процессов. В исследовании использованы дедуктивные и аналитические методы, основное внимание уделено практическим возможностям Big Data. Результаты показывают, что принятие решений на основе данных значительно улучшает эффективность бизнес-процессов.

Ключевые слова: Большие данные, Цифровой бизнес, Аналитика данных, Оптимизация процессов, Инновационные технологии, Управление данными.

Abstract: The article analyzes key aspects of implementing Big Data technologies in modern digital business. These technologies play a crucial role in automating processes, enhancing efficiency, and optimizing business operations. Deductive and analytical methods were employed in the study, with a focus on the practical applications of Big Data. The findings indicate that data-driven decision-making significantly improves the efficiency of business processes.

Keywords: Big Data, Digital Business, Data Analytics, Process Optimization, Innovation Technologies, Data Management.

Kirish

ISSN 3030-3907

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar rivoji turli sohalarda, ayniqsa, biznes jarayonlarida tub o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu o‘zgarishlar ichida "Big Data" texnologiyalari alohida o‘rin tutadi. "Big Data" – yuqori tezlikda yaratiladigan, turli formatlardagi katta hajmdagi tuzilgan va tuzilmagan ma’lumotlar to‘plamidir. Ushbu texnologiya biznesda qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirish, foydalanuvchi tajribasini yaxshilash va xarajatlarni kamaytirish imkonini yaratadi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Ushbu maqola "Big Data" texnologiyalarining mohiyati, uning raqamli biznesdagi qo‘llanilishi va bu jarayonning samaralariga bag‘ishlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. **Deduktiv tahlil:** "Big Data" texnologiyalarining biznesdagi imkoniyatlari umumiy ma’lumotlarga asoslangan holda baholandi.
2. **Birlamchi ma’lumotlar yig‘ish:** So‘rovnomalar va intervyular orqali mahalliy kompaniyalarning fikr-mulohazalari olindi.
3. **Ikkilamchi manbalar tahlili:** Ilmiy maqolalar, xalqaro hisobotlar va texnologik platformalardan olingan ma’lumotlar o‘rganildi.

Tadqiqot ob’ektlari sifatida raqamli xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanuvchi kompaniyalar tanlandi.

Natijalar va tahlillar

"Big Data" texnologiyalarining asosiy tamoyillari

1. **Hajm (Volume):** Ma’lumotlarning hajmi juda katta bo‘lib, terabaytdan zettabaytgacha yetishi mumkin.
2. **Tezlik (Velocity):** Ma’lumotlar real vaqt rejimida qayta ishlanadi.
3. **Xilma-xillik (Variety):** Tuzilgan, yarim tuzilmali va tuzilmagan ma’lumotlar formatlari.
4. **Haqiqiylik (Veracity):** Ma’lumotlarning ishonchliligi va sifatini ta’minlash.
5. **Qiymat (Value):** Tahlil natijalaridan amaliy foyda chiqarish.

Big Data texnologiyalari va biznesda ularning ahamiyati

Big Data — bu ulkan hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish va ulardan biznes qarorlarini qabul qilish uchun foydalanishga asoslangan texnologiyalar majmuasi. Zamonaviy dunyoda Big Data biznesni samarali boshqarishning ajralmas qismiga aylangan.

Narxlarni boshqarish: Talab va taklifga qarab narxlarni o‘zgartirish orqali foyda ko‘paytiriladi. Masalan, *Uber* buni real vaqt rejimida amalga oshiradi.

ISSN 3030-3907

Moliyaviy boshqaruv va xavflarni kamaytirish: Biznes uchun moliyaviy xavflarni oldindan ko‘ra bilish va qaror qabul qilishda Big Data juda foydali.

- **Xavfni aniqlash:** Banklar yoki to‘lov tizimlari Big Data yordamida firibgarlik harakatlarini aniqlaydi. Masalan, *PayPal* shubhali operatsiyalarni bloklash uchun real vaqt ma’lumotlariga tayanadi.
- **Kelajakni bashorat qilish:** Tushum va xarajatlar haqida aniqlik bilan prognoz qilish orqali resurslarni to‘g‘ri taqsimlash imkoniyati yaratiladi

Ishlab chiqarish va logistika: Big Data nafaqat mijozlar bilan ishlashda, balki ishlab chiqarish va mahsulot yetkazib berishni samarali rejalashtirishda ham yordam beradi.

- **Logistika:** *FedEx* kabi kompaniyalar yuklarni qayerdan-qayerga tez va samarali yetkazib berishni oldindan tahlil qilishadi. Bu nafaqat vaqtni, balki xarajatlarni ham kamaytiradi.
- **Mahsulot zaxirasi:** *Walmart* Big Data orqali do‘konlaridagi mahsulot miqdorini talabga qarab boshqaradi va zaxira tugashining oldini oladi.

Kadrlar boshqaruvi: Big Data xodimlarni tanlash, ularning samaradorligini baholash va yaxshiroq ishlash sharoitlarini yaratishda ham foydali.

- **Yangi xodimlarni qabul qilish:** Nomzodlarning ma’lumotlarini chuqur tahlil qilib, eng mos keladiganlarini tanlash.
- **Ishlash sifatini kuzatish:** Xodimlarning ishlash samaradorligi haqidagi ma’lumotlarni to‘plash va ularni yaxshilash bo‘yicha qarorlar qabul qilish.

Raqamli transformatsiya: Big Data kompaniyalarga raqamli dunyoda o‘z o‘rnini mustahkamlashga yordam beradi.

- **Avtomatlashtirish:** Jarayonlarni sun’iy intellekt va algoritmlar orqali boshqarish xarajatlarni kamaytiradi.
    - **Yangi xizmatlar yaratish:** Big Data yordamida mijozlarning ehtiyojlarini aniqlab, mos xizmatlarni taklif qilish mumkin. Masalan, *Netflix* serial va filmlar tavsiyalarini shu asosda beradi.

Innovatsiyalarni rag‘batlantirish: Big Data kompaniyalarni bozor talablarini tushunishga va yangi mahsulotlar yaratishga ilhomlantiradi. *Samsung* yangi texnologiyalarni ishlab chiqishda bozor tendensiyalarini o‘rganadi va Big Data natijalariga asoslangan holda mahsulotlarini takomillashtiradi.

Amaliy natijalar

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, "Big Data" texnologiyalari yordamida kompaniyalar quyidagi yutuqlarga erishmoqda:

- **Mijozlar ehtiyojlarini tushunish:** *Amazon* kompaniyasi o‘zining shaxsiy tavsiyalar tizimida "Big Data" texnologiyalaridan foydalangan holda mijozlarning xatti-harakatlari va xarid qilish odatlarini tahlil qiladi. Bu tizim

ISSN 3030-3907

foydalanuvchilarga moslashtirilgan mahsulotlar tavsiyalarini yaratib, sotuvlarni 35% ga oshirishga yordam berdi.

- **Jarayonlarni avtomatlashtirish:** *Tesla* kompaniyasi ishlab chiqarish jarayonlarida "Big Data" va sun'iy intellekt algoritmlaridan foydalangan holda real vaqt rejimida robotlar faoliyatini boshqaradi. Bu avtomatlashtirish zavod samaradorligini oshirish va xarajatlarni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi.
- **Marketing strategiyalarini optimallashtirish:** *Netflix* kompaniyasi foydalanuvchilar tomosha qilish odatlarini tahlil qilib, ularning qiziqishlariga mos kontent tavsiya etadi. Ushbu strategiya foydalanuvchilarning platformada qolish vaqtini sezilarli darajada oshirdi va raqobatda yetakchi bo'lish imkonini berdi.
- **Risklarni minimallashtirish:** *JP Morgan Chase* moliyaviy muassasasi "Big Data" algoritmlaridan foydalanib kredit xavflarini bashorat qiladi. Bu texnologiya kompaniyaga qarz berish jarayonida xatoliklarni kamaytirish va xavfsiz investitsiya siyosatini yuritishda yordam beradi.
- **Ta'minot zanjirlarini optimallashtirish:** *Walmart* kompaniyasi ta'minot zanjirida katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilib, mahsulotlarni joylashtirishni optimallashtirdi. Ushbu texnologiya orqali inventar darajasini boshqarish va mijoz talabini qondirish samaradorligi oshdi.
- **Kadrlar samaradorligini oshirish:** *Google* kompaniyasi xodimlarning faoliyatini kuzatish uchun "People Analytics" tizimidan foydalanadi. Bu tizim samarali kadrlar siyosatini ishlab chiqish va xodimlarning qoniqishini oshirishda yordam beradi.
- **Bozor tendensiyalarini bashorat qilish:** *Alibaba* platformasi bozor tendensiyalarini aniqlashda katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilib, sotuvchilarga kelajakdagi talablarni bashorat qilish bo'yicha tavsiyalar beradi. Bu yondashuv kompaniya savdo hajmini oshirishga va foydalanuvchilarning qoniqishini ta'minlashga yordam bermoqda.

Xulosa va takliflar

"Big Data" texnologiyalari zamonaviy biznesda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu texnologiyalarni samarali qo'llash korxonalarga raqobatda ustunlik beradi. Kelajakda "Big Data" texnologiyalari ahamiyati yanada oshishi kutilmoqda.

Takliflar:

1. Kompaniyalar xodimlarini "Big Data" texnologiyalari bo'yicha malaka oshirish kurslariga jalb qilish.
2. Yangi texnologiyalarni qo'llash uchun davlat darajasida milliy platformalar yaratish.
3. Kichik biznes uchun moslashtirilgan va arzon yechimlarni taklif etish.

ISSN 3030-3907

4. Kiberxavfsizlik tizimlarini kuchaytirish va ma’lumotlar maxfiyligini ta’minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. John Wiley, *Big Data: Innovations and Challenges*, 2021.
2. Harvard Business Review, *Digital Transformation in Business*, 2022.
3. Prezidentning "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasi (prezident.uz).
4. Amazon kompaniyasining "Big Data" bo‘yicha hisobotlari.
5. Xalqaro ilmiy maqolalar va texnologik tahlillar.

ISSN 3030-3907

MAKTABLARDAGI MADANIY MUHITDA O‘QUVCHILARNI RIVOJLANTIRISH USULLARI, METODLARI VA TEXNOLOGIYALARI

Malikova Dilraboxon
Qori Niyoziy nomidagi TPMI mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktab muhitidagi madaniy va ta’limiy faoliyatlarning o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi. O‘quvchilarning madaniy va ma’naviy jihatdan shakllanishida madaniy muhitni yaratishning ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullar, metodlar va zamonaviy texnologiyalar haqida fikr yuritiladi. Maqolada ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarning qo‘llanilishi bo‘yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ham bayon etilgan.

Tayanch so‘zlar: maktab madaniy muhiti, o‘quvchilarni rivojlantirish usullari, ta’lim metodlari, tarbiya metodlari, innovatsion texnologiyalar, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние культурной и образовательной деятельности в школьной среде на всестороннее развитие учащихся. Рассматривается важность создания культурной среды для формирования у учеников культурных и нравственных качеств. Также обсуждаются методы, подходы и современные технологии, способствующие развитию. В статье также представлены научные и практические рекомендации по применению инновационных подходов в системе образования.

Ключевые слова: школьная культурная среда, методы развития учащихся, методы обучения, методы воспитания, инновационные технологии, подход, ориентированный на личность.

Abstract: This article examines the influence of cultural and educational activities within the school environment on the holistic development of students. It emphasizes the significance of fostering a cultural environment to cultivate cultural and moral values among students. Additionally, the article explores various methods, pedagogical approaches, and modern technologies that facilitate student development. Furthermore, it offers both theoretical and practical recommendations for the integration of innovative approaches within educational practices to enhance the overall effectiveness of the education system.

Keywords: school cultural environment, student development methods, bringing-up methods, pedagogical strategies, innovative technologies, person-centered approach.

Kirish

Bugungi kunda ta’lim tizimi nafaqat bilim berishga, balki o‘quvchilarning

ISSN 3030-3907

shaxsiy va madaniy rivojlanishiga ham e’tibor qaratmoqda. Bu jarayonda maktablarning madaniy muhiti alohida ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarning ta’lim-tarbiyasida maktab madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, innovatsion usullar, metodlar hamda texnologiyalardan foydalanish zamon talabidir. Maktab muhitida o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlash ta’lim-tarbiya jarayonining muhim yo‘nalishidir. Madaniy muhit nafaqat o‘quvchilarni ma’lum fanlardan bilim olishga, balki ularning shaxsiy va axloqiy sifatlarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Ushbu maqolada maktab madaniy muhitining o‘quvchilar rivojlanishiga ta’sirini oshirishga qaratilgan usul, metod va texnologiyalar tahlil qilinadi.

Maktab madaniy muhitining ahamiyati. Maktabdagi madaniy muhit o‘quvchilarning qiziqishlari, qadriyatlari va ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir. Ushbu muhitning qulayligi va boyligi o‘quvchilarni:

ijodiy fikrlashga,

axloqiy tarbiyaga,

muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltiradi.

Madaniy muhitni yaratishda maktabning missiyasi, pedagogik jamoaning yondashuvi va ota-onalar ishtiroki muhim ahamiyatga ega.

Maktab madaniy muhitida o‘quvchilarni rivojlantirishning bir qator usul va metodlari mavjud.

1. Faol o‘quv metodlari;
2. Hamkorlikda o‘qitish metodi;
3. Madaniy tadbirlar va ekskursiyalar;
4. Raqamli va innovatsion texnologiyalardan foydalanish;
5. Pedagogik jamoaning roli.

Faol o‘quv metodlari – bu o‘quv jarayonida o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydigan, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiruvchi va bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishiga xizmat qiluvchi usullar tizimidir. Ushbu metodlar o‘quvchilarning faqatgina tinglovchi yoki passiv kuzatuvchi sifatidagi rolidan chiqarib, ularni muhokama, tahlil, qaror qabul qilish va ijodiy yondashishga jalb etadi.

Faol o‘quv metodlarining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

O‘quvchi markaziy rolni egallaydi: O‘qituvchi nazoratchi yoki yo‘naltiruvchi sifatida ishtirok etadi.

Jamoaviy hamkorlikka urg‘u beriladi: Guruhlarda ishlash, muhokamalar, rolli o‘yinlar kabi usullar qo‘llaniladi.

Amaliy ko‘nikmalarning shakllanishi: O‘quvchilar real hayotiy vaziyatlarni yechishda faol qatnashadilar.

ISSN 3030-3907

Refleksiya va tahlil: O‘quvchilar o‘z faoliyatini baholash va xulosalar chiqarishni o‘rganadilar.

Faol o‘quv metodlariga munozara va bahslar, rolli o‘yinlar va simulyatsiyalar, “Aqliy hujum” (brainstorming), kichik guruhlarda ishlash, Case study (vaziyatli tahlil)larni misol qilib keltirishimiz mumkin. Ushbu metodlar o‘quv jarayonini qiziqarli, samarali va o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilgan shaklda tashkil etishga yordam beradi. Rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlar va muloqot asosidagi mashg‘ulotlar o‘quvchilarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Hamkorlikda o‘qitish metodi – bu ta’lim jarayonida o‘quvchilar birgalikda ishlash, o‘zaro yordam va bilim almashish orqali ma’lum bir maqsadga erishadigan pedagogik yondashuvdir. Ushbu metodning asosiy tamoyili o‘quvchilarni guruh bo‘lib ishlashga jalb qilish orqali ularning bilimlarni mustaqil izlash, tahlil qilish va qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishdir.

Hamkorlikda o‘qitish metodining asosiy xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: *guruh bo‘lib ishlash* (o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linib, muayyan vazifalarni birgalikda bajaradilar), *o‘zaro yordam* (guruh a’zolari bir-birlarini qo‘llab-quvvatlaydilar, bilimlarini o‘rtoqlashadilar va muammolarni birgalikda hal qiladilar), *faol muloqot* (o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin bildirishlari, tinglashni va muhokama qilishni o‘rganadilar) *mas’uliyat taqsimoti* (har bir ishtirokchi o‘z vazifasi uchun javobgarlikni his qiladi, ammo umumiy natija guruhning harakati bilan bog‘liq bo‘ladi), hamda *mustaqil fikrlashni rivojlantirish* (o‘quvchilar o‘z qarashlarini bildiradi va guruh fikriga mos ravishda qaror qabul qiladi).

Hamkorlikda o‘qitish jarayonida o‘quvchilar birgalikda loyihalar ustida ishlashadi, bu esa ularda jamoaviy ish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, turli yosh guruhlari bilan ishlash ijtimoiy o‘zaro ta’sirni kuchaytiradi.

Madaniy tadbirlar va ekskursiyalar. Madaniy tadbirlar va ekskursiyalar o‘quvchilar rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu faoliyatlar nafaqat ta’lim jarayonini boyitadi, balki o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. O‘quvchilarning madaniy bilimlarini boyitish maqsadida teatrlar, muzeylar, tarixiy joylarga ekskursiyalarni tashkil qilish samarali natija beradi. Ushbu jarayon o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi va ularda estetik didni rivojlantiradi. Xususan:

Ekskursiyalar va madaniy tadbirlar o‘quvchilarga darslarda o‘rganilgan nazariy bilimlarni amalda ko‘rish va tushunishga yordam beradi. Masalan, tarixiy joylarga tashrif buyurish o‘quvchilarning tarixiy voqealar haqidagi tushunchasini chuqurlashtiradi.

Muzey, teatr va ko‘rgazmalarga borish madaniyat, san’at va fan sohasida qo‘shimcha ma’lumot olish imkoniyatini beradi.

ISSN 3030-3907

Guruh bo‘lib ishlashni talab qiladigan ekskursiyalar esa hamkorlik va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Guruh bilan uyushtiriladigan ekskursiyalar o‘quvchilar o‘rtasida muloqot va hamkorlik madaniyatini rivojlantiradi. Bu esa o‘z navbatida, ularning ijtimoiy faolligini oshiradi.

Madaniy tadbirlarda ishtirok etish o‘quvchilarda odob-axloq qoidalarini o‘zlashtirish va amalda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ta’limga nisbatan motivatsiyani oshirishda madaniy tadbirlarning o‘rni muhim. Darsdan tashqari faoliyatlar o‘quvchilarga yangi muhitda o‘z qobiliyatlarini sinab ko‘rish imkonini beradi. Bunday tadbirlar o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshiradi va ularda o‘qishga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. Madaniy tadbirlar va ekskursiyalar o‘quvchilarni keng dunyoqarashli, ijtimoiy mas’uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Mustaqil fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va o‘zini nazorat qilish kabi fazilatlar shakllanadi.

Raqamli va innovatsion texnologiyalardan foydalanish maktab muhitida ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarni zamonaviy talablarga moslashtirish hamda ta’lim jarayonini samarali tashkil qilish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar o‘quv materiallarini ko‘rgazmali shaklda taqdim etish imkonini yaratadi. Masalan, virtual laboratoriyalar, 3D modellar va animatsiyalar orqali murakkab mavzularni tushuntirish osonlashadi. Grafik dizayn, dasturlash va robototexnika kabi fanlarni o‘rganish ijodiy qobiliyatlarni oshiradi. Qolaversa, interaktiv doskalar va ta’lim ilovalari o‘quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etadi.

Hozirgi kunda o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otishda interaktiv ta’lim platformalari (masalan, Quizizz, Kahoot) keng qo‘llanilmoqda. Ushbu texnologiyalar orqali o‘quvchilar bilim olish jarayonida faol ishtirok etadilar. Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari yordamida tarixiy hodisalar yoki madaniy obidalarning virtual namoyishi tashkil qilinadi, bu esa o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi ishtiyoqini oshiradi. Onlayn platformalar orqali o‘quvchilar o‘zlari ijod qilgan materiallarni bo‘lishib, fikr almashish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu ularning axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Pedagogik jamoaning roli. Madaniy muhitni shakllantirishda o‘qituvchilarning professional malakasi, tarbiyaviy yondashuvlari va psixologik madaniyati katta rol o‘ynaydi. Maktabda quyidagi jarayonlarni tizimli ravishda tashkil etish muhimdir: o‘qituvchilarning muntazam ravishda malaka oshirishi, o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga e’tibor qaratilishi, sog‘lom muloqot va hurmatni targ‘ib qiluvchi uslublardan foydalanish.

Xulosa. Maktablardagi madaniy muhit o‘quvchilarning shaxsiy, axloqiy va intellektual rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Innovatsion texnologiyalar va

ISSN 3030-3907

zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash ushbu jarayonni yanada samarali qiladi. Madaniy muhitni shakllantirish o‘quvchilarning kelajakda madaniy, ijodiy va ijtimoiy faollar sifatida rivojlanishiga mustahkam asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat (O‘quv
2. qo‘llanma). – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi
3. nashriyoti, 2006-y. – 160 b. 66-bet.
4. Axlidinov R.Sh. Umumiy o‘rta ta’limni takomillashtirishning tashkiliypedagogik asoslari: Ped. fan. dok. ... dis. – Toshkent, 1998–172 b.
5. Mavlonova R., To‘raeva O., Xoliqberdiev K. Pedagogika.-Toshkent: O‘qituvchi, 2001. – 510 b.
6. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa.//Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2015. – 376 b.
7. Pedagogika. Ensiklopediya. III jild. jamoa // Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 400 b.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2023). “Maktab ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyasi”. Tashkent: Normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami.

ISSN 3030-3907

UDK 373.167.1.378.811.111

IMPORTANCE OF CHOOSING APPROPRIATE TEXTBOOK.

Allayarova Zebiniso Boymuratovna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Xorijiy tillar nazariyasi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD),dotsent
zeboallayarova51@gmail.com +998903523082
Elboyeva Shaxnoza Azim qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Xorijiy tillar fakulteti 4-kurs talabasi shaxnozaelboyeva2506@gmail.com +998771532503

ABSTRACT. In this article we present the theoretical background on textbook selection. We first discuss the role of the textbook in English language instruction and various benefits of using appropriate textbook in teaching English. Since, a large number of teachers consider this as one of the most important aspect of teaching language that can make the learning process easy and interactive.

Key words: teaching language, learning process, productivity, textbook selection, educational standards, learner, students' needs, syllabus, framework, tasks.

АННОТАЦИЯ. В этой статье мы представляем теоретические основы выбора учебников. Сначала мы обсудим роль учебника в обучении английского языка и различные преимущества использования соответствующего учебника при обучение английскому языка. Поскольку большое количество учителей считают это одним из наиболее важных аспектов преподавания языка, который может сделать процесс обучения легким и интерактивным.

Ключевые слова: обучение языку, процесс обучения, продуктивность, выбор учебников, образовательные стандарты, учащийся, потребности учащихся, учебная программа, структура, задачи.

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada biz darslik tanlash bo'yicha nazariy ma'lumotlarni taqdim etamiz. Biz birinchi navbatda ingliz tilini o'qitishda darslikning o'rni va ingliz tilini o'qitishda tegishli darslikdan foydalanishning turli afzalliklarini muhokama qilamiz. Chunki, ko'p sonli o'qituvchilar buni o'quv jarayonini oson va interaktiv holga keltiradigan til o'rgatishning eng muhim jihatlaridan biri deb bilishadi.

Kalit so'zlar: o'qitish tili, o'quv jarayoni, unumdorlik, darslik tanlash, ta'lim standartlari, o'quvchi, talabalar ehtiyojlari, dastur, asos, vazifalar.

INTRODUCTION

TAS tuzli tiqinlar hosil bo’lishiga qarshi ingibitori sintezi bir necha bosqichli katalitik jarayonlarga asoslangan bo‘lib, bunda ftal angidrid va xlor asosida tuzli tiqinlar hosil bo’lishiga qarshi ingibitorlar sintez qilinadi. Jarayonning oraliq bosqichlarida 5-xlorizobenzofuran-1,3-dion va 5-morfolinoizobenzofuran-1,3-dion ham hosil bo‘ladi. Olingan xlorli hosilani morfolin bilan ta’sirlashtirilib, 5-morfolinoizobenzofuran-1,3-dion olinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Reaksiyalarni quyidagicha ifodalash mumkin:




Reaksiya S_E2 aromatik mexanizmda boradi. Alyuminiy xlorid xlor atomi bilan kompleks hosil qiladi.


$$AlCl_3 + \overset{0}{Cl_2} \longrightarrow AlCl_4^- \bullet Cl^+$$

Ftal angidrid va xlor atomining ta’sirlashuvi geterogen sistemada boradi. Reaksiya jarayoni borayotgan reaktorning harorati oshirilganda, reaksiyaga kirishayotgan moddalar zarrachalarining harakat tezligi ortadi va bu holat zarrachalarning o‘zaro to‘qnashishlar sonini oshiradi. Natijada maxsulot unumini oshishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek o‘ta yuqori haroratda organik moddalarning parchalanishi ham kuzatiladi. Shuning uchun tadqiq qilinayotgan reaksiyaning optimal harorat qiymatini topish muhim hisoblanadi. Laboratoriya sharoitida reaksiya 80°C da amalga oshirilganda mahsulot unumi maksimal 40,2 % ni tashkil etdi.

ISSN 3030-3907




Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga asoslanib, reaksiyaning davom etish vaqti 3,5 soat bo‘lganda 5-xlorizobenzofuran-1,3-dionni unumi eng yuqori qiymatga ega bo‘lishi aniqlandi. Bu hodisani 3,5 soatda ma’lum hajimdagi DMSO erituvchisining to‘yinishi bilan tushuntiriladi.



Texnologik tizimning o’rta hamda oxirgi bosqichlarida hosil bo’ladigan mahsulotlar zichligi dastlabki moddalarga nisbatan yuqoriroq bo’lganligi sababli, reaksion aralashmalar separator qurilmalari yordamida ajratiladi. Reaksiyaga kirishmagan dastlabki moddalar reaktorlarga qaytariladi.

ISSN 3030-3907



1-rasm. TAS tuzli tiqinlar hosil bo’ lishiga qarshi ingibitorning ishlab chiqarish prinspial texnologik sxemasi.

1,2,3,4-reaktorlar; 5-sig’ im; 6,7-separatorlar; 8,9,10,11,12,13-nasoslar; 14-kompressor.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Taklif etilayotgan texnologiya asosida (1-rasm) tarkib uchun kerakli modda xlor atrof muhit haroratida kompressor(12) yordamida 15 m^3/s sarf bilan R-1 reaktor(1)ning quyi qismidagi gaz taqsimlash panjarasi orqali ftal angidridga biriktirish uchun kiritiladi.

Bunda R-1 reaktorning harorat rejimi 25^oC ni tashkil etadi. R-1 reaktorning tepa qismi, suyuq holatdagi katalizatorning gaz fazadagi moddalar bilan birgalikda chiqib ketmasligi uchun tomchi ushlagich bilan jihozlanadi.

Bunda 5-xlorizobenzofuran-1,3-dion hosil bo‘ladi. 103 ^oC haroratli R-2 g‘ilofli reaktor(2)ga DMSO erituvchisi 2,3 kg/s hamda ftal angidrid 9 kg/s sarf bilan kiritiladi. Aralashtirgich yordamida R-2 g‘ilofli reaktor(2)dagi aralashma intensiv aralashtirilib turiladi.

ISSN 3030-3907

Hosil bo'lgan eritmaga 5-sig'imda 0,5 kg/s sarf bilan berilayotgan $AlCl_3$ katalizatori qo'shiladi.

Mernik yordamida keyingi uzluksiz jarayonlarni mahsulot bilan talab etilgan sarfda ta'minlab turiladi. Hosil bo'lgan katalitik sistema P-1 reaktor(1)ning yuqori qismidan nasos(8) yordamida 8 kg/s sarf bilan kiritiladi.

5-xlorizobenzofuran-1,3-dion sintezi jarayonini uzluksiz amalga oshirish uchun P-2 reaktor(2)ga reglamentda ko'rsatilgan hajmlarda xomashyo yuklanadi.

Xlorlash reaksiyasi qaytar va ekzotermik bo'lganligi sababli to'g'ri reaksiya tezligini oshirish maqsadida nasadka qatlamlari orasida suvli sovutish tizimlari o'rnatilgan. Reaksiyaning muvozanati temperatura pasayishi bilan o'ng tomonga siljiydi va $t < 50$ °C haroratda reaksiya qaytmaydi.

R-1 reaktorning elaksimon tarelkali bo'lishi suyuq faza (ftal angidrid, DMSO, $AlCl_3$) va gaz faza (xlor) ning o'zaro to'qnashishlar sonini oshirishi hisobiga reaksiya unumining yanada yuqori bo'lishiga sabab bo'ladi. Odatda bu turdagi tarelka yuzasi 1...5 mm li teshiklardan iboratdir va tarelkadan tushayotgan ko'pikni parchalash uchun yuqori ostona tarelkadagi suyuqlik sathini bir xil balandlikda ushlab turish uchun esa, quyi ostona xizmat qiladi. Suyuq faza tepadagi tarelkaga uzatiladi va quyilishi moslamasidan o'tib, qurilmaning pastki qismidan chiqib ketadi. Gaz faza har doim qurilmaning pastki qismiga kiritiladi va tarelkalardan pufakcha shaklida o'tib, yuqori qismidagi shtutserdan chiqadi.

Ftal angidridga birikmagan xlor gazi reaktorning tepa qismidan chiqarilib aylanma gaz sifatida tizimga qaytariladi.

Hosil bo'lgan 5-xlorizobenzofuran-1,3-dion zichligi dastlabki moddalarnikiga nisbatan yuqori bo'lganligi sababli R-1 reaktor-kolonnaning pastki kub qismida to'planadi. Bu esa mahsulotni reaktorni o'zida toza holatda ajratib olish imkonini beradi.

Olingan 5-xlorizobenzofuran-1,3-dion nasos(9) yordamida R-3 reaktor(3)ning yuqori qismidan kiritiladi. R-3 reaktor(3)da 5-xlorizobenzofuran-1,3-dion morfolin bilan ta'sirlashib, 5-morfolinoizobenzofuran-1,3-dionni hosil qiladi. Olingan reaksion aralashmalar (5-xlorizobenzofuran-1,3-dion, morfolin, 5-morfolinoizobenzofuran-1,3-dion) 0,12 m^3/s sarf bilan reaktorning pastki qismidan 25 ^oC haroratda C-1 separator(6)ga ajratish uchun yuboriladi. C-1 separatorning yuqori qismidan yengil faza ya'ni R-3 reaktorda kimyoviy o'zgarishga uchramagan xomashyolar (5-xlorizobenzofuran-1,3-dion, morfolin) chiqarilib, nasos(12) yordamida R-3 reaktorga qaytariladi. Separatorning pastki qismidan ajratib olingan og'ir faza 5-morfolinoizobenzofuran-1,3-dion chiqarilib, nasos(10) yordamida R-4 reaktor(4)ning yuqori qismidan kiritiladi.

R-4 reaktor(4)da 5-morfolinoizobenzofuran-1,3-dion konsentrlangan fosfat kislota bilan ta'sirlashib, Uzximning fosfat tuzini hosil qiladi. R-4 reaktor(4) ning

ISSN 3030-3907

harorat rejimi 25-30 ℃ ni tashkil etadi.

Olingan reaksion aralashmalar (5-morfolinoizobenzofuran-1,3-dion, fosfat kislota, Uzximning fosfat tuzi) 0,17 m^3/s sarf bilan reaktorning pastki qismidan 25 ^oC haroratda C-2 separator(7)ga ajratish uchun yuboriladi. C-2 separatorning yuqori qismidan yengil faza ya'ni R-4 reaktorda kimyoviy o'zgarishga uchramagan xomashyolar (5-morfolinoizobenzofuran-1,3-dion, fosfat kislota) chiqarilib, nasos(13) yordamida R-4 reaktorga qaytariladi.

R-4 reaktor(4)da fosfat kislota agressiv muhit hosil qiladi. Reaktorni ichki yuzasi korroziyadan himoya qilish maqsadida, qalinligi 2 mm li mis qoplama bilan qoplanadi.

XULOSA

Tayyor maxsulotning texnik nomi:

Ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulot nomi: AS. Tarkibi - 1,1,3-triaminobutil-2-formilbenzoat. Korroziyaga qarshi vositadir.

Tuzli tiqinlar hosil bo'lishiga qarshi ingibitorning asosiy xossalari

Tuzli tiqinlar hosil bo'lishiga qarshi ingibitor – issiqlik almashinish qurilmalarida asosiy issiqlik tashuvchi agent bo'lgan suvli muhitlarda tuzli tiqinlar hosil bo'lishini oldini oluvchi organik moddadir.

Qo'llash sohasi

Tuzli tiqinlar hosil bo'lishiga qarshi ingibitor qobiq-quvurli issiqlik almashinish qurilmalarida quvurlar to'plamining ichki qismida hamda quvurlar aro bo'shliqlarda tuzli tiqinlar hosil bo'lib to'planishini oldini oladi. Tuzli tiqinlarning quvurlar ichi va quvurlar aro bo'shliqlarda to'planishi, qurilmada issiqlik tashuvchi agentlarning harakatlanishiga to'sqinlik qiladi hamda issiqlik almashinish qurilmasidagi quvurlar devorining qalinligi bo'yicha issiqlik o'tkazuvchanligini susayishiga sabab bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Temirov, A., Akhmedov, V., & Olimov, B. (2022). Synthesis and properties of thiourea based inhibitors. Главный редактор: Ахметов Сайранбек Махсутович, д-р техн. наук; Заместитель главного редактора: Ахмеднабиев Расул Магомедович, канд. техн. наук; Члены редакционной коллегии, 63.

2. Zuhriddin, R., & Niginabonu, J. (2022). PRODUCTION OF POLYETHYLENE TEREPHTHALATE. Universum: технические науки, (5-11 (98)), 58-62.

3. V.N.Axmedov, Z.X.Rayimov, G.A.G'afurova.Tereftal kislota hosilalari. ISBN 978-9943-9265-3-0 Monografiya "Durdona" nashriyoti. 2023. 152 bet.

4. Zuhriddin, R., Niginabonu, J., Aminjon, V., & Temurbek, D. (2022). MECHANISMS OF ETERIFICATION OF TEREFTALIC ACID WITH ETYLENGLYCOL. Universum: технические науки, (5-11 (98)), 63-67.

ISSN 3030-3907

5. Vohid, A., Zukhriddin, R., & Farkhod, K. (2024). CHLORINATION OF PHTHALIC ANHYDRIDE. Universum: технические науки, 8(10 (127)), 19-23.

6. Rayimov, Z., & Haydarov, A. (2023). IKIK VA IKTK KORROZIYA INGIBITORLARINING KISLOTALI MUHITDA METALLARNI KORROZIYADAN HIMOYALASH MEXANIZMI. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, (11), 124-129.

ISSN 3030-3907

MO‘YNA SANOATIDA MAHALLIY O‘SIMLIK OSHLOVCHILARNI QO‘LLASH

Temirova Matlab Ibodovna
Buxoro muhandislik texnologiya instituti, t.f.n., professor
Rayimov Zuhriddin Xayriddin o’g’li
Buxoro muhandislik texnologiya instituti, t.f.n., dotsent
Sultonova Dilsora Rashid qizi
Buxoro muhandislik texnologiya instituti, magistr

Annotatsiya. Charm va mo‘yna ishlab chiqarishda oshlash jarayoni eng muhim jarayon bo‘lib, ularning xossalariga ta’sir etishda hal etuvchi rol o‘ynaydi. Charm va mo‘ynaning ko‘pgina ekspluatatsion xususiyatlari ma’lum darajada oshlovchi birikmalar tarkibiga va ularning kollagen funksional guruhlari bilan bog‘langan bog‘lanish tabiatiga bog‘liq bo’ladi. Ushbu maqolada mo‘yna sanoatida qo‘llaniladigan mahalliy o‘simlik oshlovchilarning turlari va ularni qo’llash imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so’zlar: tanidlar, ekstrakt, oshlovchi modda, charm, notanidlar, suvda erimaslar, osma baraban.

Аннотация. Процесс дубления является важнейшим процессом в производстве кожи и меха и играет решающую роль в влиянии на их свойства. Многие эксплуатационные свойства кожи и меха в определенной степени зависят от состава усиливающих соединений и характера их связывания с функциональными группами коллагена. В данной статье описаны виды местных консервантов растений, используемых в меховой промышленности, и их потенциальное применение.

Ключевые слова: дубильные вещества, экстракт, ароматизатор, кожа, недубильные вещества, водонерастворимые, суспензионный барабан.

Abstract. The tanning process is the most important process in the production of leather and fur, and it plays a decisive role in influencing their properties. Many of the performance properties of leather and fur depend to a certain extent on the composition of enhancing compounds and the nature of their binding to collagen functional groups. This article describes the types of local plant preservatives used in the fur industry and their potential applications.

Key words: tannins, extract, flavoring agent, leather, nontanids, water insoluble, suspension drum

KIRISH

Charm sanoati uchun juda muhim reagent va tarkibida tannidlari bo‘lgan moddalar yoki o‘simlik qismlari oshlovchi materiallar hisoblanadi. Derma qalinligi bo‘ylab oshlovchi moddalarning tekis yoyilishi ham charm va mo‘yna

ISSN 3030-3907

xususiyatlariga ta’sir etadi. Bu esa, o‘z navbatida oshlovchilar tarkibiga, oshlash tartibiga, derma strukturalarining oshlashga qanday tayyorlanganligiga bog‘liq bo‘ladi [1].

O‘simliklarning turli xil qismlarida bo‘lib, suv bilan ekstraktsiyalanib va bu ekstrakt (shira) derma bilan o‘zaro ta’sirlashib uni charmga aylantiradigan moddalarga tannidlar deb yuritiladi (adabiyotlarda qisqacha TN belgilanadi). O‘simliklarning tuzilishiga qarab, tannidlar ularning har xil qismlarida: ildizida, poyasida, bargida, po‘stlog‘ida va mevasida bo‘ladi. Bunda tannidlarning miqdori o‘simlik qismlarida juda ham kam, ya’ni bir necha 10 % gacha to‘planishi mumkin.

Hamma o‘simlik oshlovchi moddalarning tuzilishi yaxshi o‘rganilgan bo‘lib, ularning molekulasida fenol birikmalari mavjuddir. Tannidlarning tarkibiga qisman ko‘p atomli fenollardan pirokatexin, rezortsin, indroxinon, pirogallol, floroglyutsin shu jumladan, fenolkarbon kislotalari kiradi [2-3].

Shunday qilib hamma tannidlar ko‘p atomli fenollarning, ya’ni polifenollarning hosilalaridir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotlardan ko‘rish mumkinki, oshlovchilar molekulasining massasiga nisbatan tannidlarning strukturasiga 15–30 % fenol gidroksillari to‘g‘ri keladi.

Zamonaviy sinflashga ko‘ra tannidlar, gidrolizlanadigan va kondensatsiyalanadiganlarga bo‘linadi.

Charm sanoatida qo‘llaniladigan va tarkibida tannidlari bo‘lgan o‘simlik qismlarini oshlovchi materiallar deb ataladi. Quruq, quritilgan, kerakli kontsentratsiyaga yoki konditsiyaga etib suvi haydalgan oshlovchi materiallarning suv haydamasi (shirasi, sharbati) oshlovchi ekstraktlar deb ataladi.

Oshlovchi ekstraktlar tarkibiga asosan quyidagi komponentlar: tannidlar (T), notanidlar (NT), va suvda erimaslar (SE) kiradi[2-4].

Barcha o‘simlik oshlovchi moddalarning tuzilishi yaxshi o‘rganilgan bo‘lib, ularning molekulasida fenol birikmalari mavjuddir. Tannidlarning tarkibiga qisman ko‘p atomli fenollardan pirokatexin, rezortsin, indroxinon, pirogallol, floroglyutsin shu jumladan, fenolkarbon kislotalari (gallovaya, ellagovaya va boshq.) kiradi.

Zamonaviy sinflashga ko‘ra tannidlar, gidrolizlanadigan va kondensatsiyalanadiganlarga bo‘linadi. O‘simlik oshlovchilarining turlari haqida gapirsak, chet ellarda o‘simlik oshlovchi materiallar sifatida kvebraxo, mangro, mimoza, gemlok, gambir, kashtan va boshqalar ishlatiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbekiston sharoitida o‘sadigan o‘tsimon oshlovchi materiallarga ko‘pgina ko‘p yillik o‘tsimon o‘simliklar kirib, ular tolasida anchagina tannidlar uchraydi. Oshlovchi tannidlar ko‘pgina mahalliy xom ashyolarda jumladan: anor po‘stlog‘ida, tut qismlarida, uzum danagida uchraydi [4].

ISSN 3030-3907

Biz tadqiqot ishimizda ekstraksiya qilishda biz iliq suvda o‘simlik materiallarini (tut, uzum donagi va anor po‘stlog‘ini) oldindan maydalangan holatda ishlov berdik. Olingan filtrlangan ekstarktni konsentrladik va pasta holatida oldik.

Tut va anor po‘stlog‘i bilan oshlash va ranglash maqsadida qo‘y po‘stin terilariga mahalliy xom ashyo tannidlarini ekstraksiya qilib qo‘llashda davlat standartlariga javob beradigan mahsulot olishga erishildi. Bu materiallarning asosiy qismi chiqindi bo‘lib, ulardan unumli foydalanilgan holda iqtisodiy samaradorlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Oshlovchi materiallarni va ekstraktlardagi tannidlarni miqdorini birinchi navbatda ularning qaysi qismida ko‘proq qaysi qismi qismida qancha borligini aniqlashda laboratoriya sharoitida baholash uchun tahlil qilish bilan erishiladi. Shu sababli tahlil qilishda namlik, quruq qoldiq, eriydiganlar, tannidlar, tannid bo‘lmaganlar, erimaslar aniqlandi. Tahlil natijalariga bo‘yicha turli tabiatli tannidlarni qaytmas joylanishini, ya’ni fiksatsiyasini tavsiflash uchun bog‘lovchanlik qobiliyati ko‘rsatkichi aniqlandi. Bundan tashqari oshlovchi ekstraktini yana bir tavsifi sifatida uning yaxshi oshlovchiligini aniqlash hisoblanadi. Yaxshi oshlovchanlikni aniqlash uchun barcha tannidlar miqdorini barcha eriydiganlar miqdoriga nisbatini foizdagi miqdoriga topiladi. Bog‘lovchanlik va yaxshi oshlovchanlik ko‘rsatgichlari orqali tadqiqot qilinadigan ekstraktni ma’lum darajada xossalari haqida fikr yuritish mumkin.

O‘simlik oshlovchi ekstraktlarni olish uchun 4 ta asosiy bosqichni amalga oshirish zarur. Bu bosqichlar quyidagilar:

1) oshlovchi materialni maydalash;

2) maydalangan massadan tannidlarni ajratib olish;

3) olingan diffuzion sharbatlarni bug‘latish bilan kerakli suyuql kislotalarik ekstraktigacha olib borish;

4) suyuq ekstraktni quritish.

Charm ishlab chiqarishda ishqor eritmalari bilan charmni yuvib olgandan keyin uning tarkibidan chiqib ketmaydigan tanidlar kollagen bilan mustahkam kimyoviy bog‘, ya’ni kovalent bog‘ hosil qilgan bo‘ladi. Charmda kovalent bog‘larning hosil bo‘lish mexanizmi yetarli darajada o‘rganilgan.

Tannidlarning kollagen singari faqat bir emas, balki ko‘pgina reaksion qobiliyatli guruhlari mavjud. Tannidlarning alohida zarrachalarining agregatlari yoki molekulalari kollagen struktura elementlarining tashqi sirti bilan reaksiyaga kirishib, ular orasida ko‘ndalang bog‘lar hosil qiladi. Bu bog‘lar kollagen strukturalarini bir-biriga mustahkamlab, ularni tikilishga olib keladi. Bunday bog‘lanishlar oshlashni olib borish sharoitlariga bog‘liq bo‘ladi.

ISSN 3030-3907

Shunday qilib kollagen strukturasining tiqilishi va mustahkamlanishi charmning pishish haroratini oshirishga va issiqlikka chidamliligini yaxshilanishiga olib keladi.

Tayyorlov jarayonlarida derma qancha yumshagan bo‘lsa, oshlovchilar kollagen bilan bog‘lanishi oshadi. Tannidlarning yirik zarrachalari yaxshi yumshagan struktura elementlari orasiga kirishi yaxshilanadi.

Oshlovchi eritma tabiati. Oshlovchi eritma tabiati uncha yaxshi o‘rganilmagan. Lekin uning ta’sirini oshlanganlik koeffitsienti ko‘rsatkichi yordamida o‘rganish mumkin. Qovushoqligi yuqori bo‘lgan tannidlar kollagen bilan tezroq bog‘lanadi.

Oshlovchi eritma pHi. Tannidlar kollagenning amino guruhlari bilan vodorod bog‘lanish hosil qiladi. Oshlashning boshida nordon muhit tannidlarning bog‘lanishini oshiradi, oxirida nordonlash bog‘lanishni o‘zgartirmaydi.

Neytral tuzlarni qo‘shish. Oshlovchi eritmaga neytrallovchi tuzlarni qo‘shsak tannidlar zarrachalari kattalashadi. Ular ko‘proq qo‘shilganda tannidlar cho‘kmaga tushadi. Eritmada esa yuqori dispersli tannidlar qolib, ular bog‘lanishni oshiradi.

Oshlovchi eritma kontsentratsiyasi. Tannidlar kontsentratsiyasini 15–20 g/l gacha oshirish bog‘lanishni oshiradi. Haddan tashqari kontsentratsiyani oshirish tannidlarni kollagen bilan bog‘lanishini kamaytiradi.

Oshlashning muddati. Oshlovchi moddalar tannidlar bilan oshlashning dastlabki soatlarida bog‘lanadi. Toza tayyorlangan va yuqori kontsentratsiyali eritmada tannidlarning bog‘lanishi oshadi. Oshlashdan so‘ng yarimmahsulotni yotqizib qo‘yish oshlash muddatini oshirsa, bog‘lanish ham oshadi.

Tadqiqot ishida aromatik yadrosini saqlagan, tarmoqlangan uglevodorod radikalli sirti faol moddalardan tannidlarni ekstraksiyalashda foydalanish maqsadga muvofiqligi aniqlandi. Bulardan alkilarilsulfat va alkilsulfonat boshqa sulfonollarga qaraganda ancha natijadorligi ma’lum bo‘ldi.

O‘simlik oshlovchilarni suvli eritmalari (ekstraktlar) doimiy ravishda o‘z tarkibila cho‘kindi saqlaydi. Oshlovchilarni turiga qarab bu cho‘kindilar yoki

Koagulyatsiyalangan tannidlar yoki ular kondensatsiya mahsulotlari (masalan flobafenlar), yoki gidrolizlanadigan tannidlarni gidrolizida (ellago va gallo) hosil bo‘ladigan moddalar hisoblanadi. Bundan tashqari cho‘kindi tarkibiga pektin moddalar birmuncha miqdorda bo‘lib, tannidlar bilan birgalikda ajraladi. Lekin baribir asosiy cho‘kindilar tannidlarnti tashkil qiladi. Eritma va cho‘kindilar munosabati o‘zgaruvchan bo‘ladi. Shu sabali cho‘kindini miqdorini konsentratsiyaga, haroratga va eritmaning pH muhitiga bog‘liqligi o‘rganildi. Haroratni va pH muhitni oshirish cho‘kindi miqdori tez o‘zgartiradi va uni miqdorini kamayishiga olib keladi. 50 °C dan yuqori haroratda cho‘kindi hosil bo‘lmaydi. Lekin uni sovutish bilan loyqalanish hosil bo‘ladi. Umuman olganda eritmani

ISSN 3030-3907

ishqorlash cho‘kindini eritadi, teskarisi kislotali muhitda cho‘kma tushishi paydo bo‘la boshlaydi.

Oshlovchi eritmalarda cho‘kindilarni bo‘lishi oshlash jarayonini murakkablashtiradi va tannidlarni yo‘qotilishiga olib keladi, shu sababli buni oldini olish uchun eritma yoki suyultiriladi yoki harorat oshiraladi yoki oddiy ko‘p atomli fenollar, aromatik va lignosulfonli kislotalar hamda sulfatlash bilan ishlov beriladi.

Ilmiy-tadqiqot ishimizda biz sulfitlashni amalga oshirdik. Bunda sulfit natriy bilan tannid istitilib o‘zaro ta’sirlantirildi.

XULOSA

Tannidlar bilan oshlash osma barabanlarda olib borildi. Bunda boshqa oshlash jarayonlariga qaraganda suyuqlik koeffitsienti yuqori olinishi bilan farq qildi.

Suyuqlik koeffitsientning kamayishi mexanik ta’sirni kuchaytiradi va muvofiq ravishda tannidlarning yutilish samarasi ortadi.

Osma barabanlarda oshlash jarayonini olib borish boshqa alternative usullarga nisbatan tannidlarning 6–10% gacha tejalishiga olib keladi.

Eritmalarni to‘liq to‘kib tashlash usulida ishlashda yarimmahsulot avvalo, yuqori kontsentratsiyali tannidlar eritmasiga tashlanib, teri to‘liq oshlanguncha baraban aylantiriladi. Oshlash tugagandan so‘ng ishlatib bo‘lingan eritma va past kontsentratsiyali tannidlar kanalizatsiyaga to‘kib tashlanadi. Barabanda oshlaganda oshlovchi tannidlarni bir marta ishlatib bo‘lingandan so‘ng butunlay to‘kib tashlanadi va bu usul ba’zan bir fazali oshlash ham deyiladi.

Adabiyotlar:

1.Kadirov N.D., Xasanova G.R. Tarkibida oshlovchi moddalar bo’lgan dorivor o’simliklar va mahsulotlar./O’quv uslubiy qo’llanma.Samarqand 2023.

2.Temirova, M. I. (2022). Development of Effective Compositions Based on Local and Secondary Raw Materials For. Texas Journal of Engineering and Technology, p 76.

3.Temirova M.I., Qodirov T.J. Charm va mo’yna texnologiyasi, o’quv qo’llanma TOSHKENT “TURON-IQBOL” 2005, 256 b.

4. M.I. Temirova “Tarmoq kimyosi va texnologiyasi” oily o’quv yurtlari uchun darslik Toshkent, Dizayn-Press MCHJ nashriyoti, 2013 y. 327 b.79.

5. Temirova, M. I. (2024). Aromatik oligoefirlar sintezi va xossalari. Science and Education, 5(2), 192-198.

6. Rayimov, Z. X. O. G. L., Temirova, M. I., & Ravshanov, S. A. O. G. L. (2024). Tereftal kislota diglikol efiri va oligomerlarning polikondensatsiyalanish reaksiyasi katalizi. Science and Education, 5(2), 161-165.

ISSN 3030-3907

TABIIY BO'YOQLAR VA ULARNING QO'LLANILISHI

Temirova Matlab Ibodovna
Buxoro muhandislik texnologiya instituti, t.f.n., professor
Rayimov Zuhriddin Xayriddin o'g'li
Buxoro muhandislik texnologiya instituti, t.f.n., dotsent
Kurbanova Niginabonu Toxirovna
Buxoro muhandislik texnologiya instituti, magistr

Annotatsiya. Jahon tajribasida paxta va ipak asosidagi to'qimachilik materiallarini kimyoviy pardozlash bo'yicha ilm va texnikani, mavjud texnologiyalarni modernizatsiyalashni samarali qo'llashga yo'naltirilgan innovatsion texnika va texnologiyalarni tadqiq qilish bo'yicha ilmiy izlanish ishlari olib borilmoqda. Bugungi kunda aralash tolali materiallarning sellyuloza tashkil etuvchisida bo'yovchi moddadan yuqori foydalanish darajasini ta'minlovchi, maxalliy xomashyoga asoslangan tarkib ishlab chiqish bo'yicha ijobiy natijalar olinmoqda. Ushbu maqolada tabiiy bo'yoqlar va ularning qo'llanish imkoniyatlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: bo'yovchi modda, tabiiy bo'yoq, ipak, seritsin, xom ipak, ipakni pishitish, ipak yelimi.

Аннотация. В мировом опыте проводятся научные исследования по исследованию инновационных методов и технологий, направленные на эффективное применение достижений науки и техники химической отделки текстильных материалов из хлопка и шелка, а также модернизацию существующих технологий. Сегодня получены положительные результаты по разработке композиции на основе местного сырья, обеспечивающей высокий уровень использования красителей в целлюлозном компоненте смесовых волокнистых материалов. В этой статье представлены натуральные красители и возможности их использования.

Ключевые слова: красители, натуральный краситель, шелк, серицин, шелк-сырец, кулинарный шелк, шелковый клей..

Abstract. In the world experience, scientific research is being carried out on the research of innovative techniques and technologies aimed at the effective application of science and technology for the chemical finishing of cotton and silk-based textile materials, and the modernization of existing technologies. Today, positive results are being obtained on the development of a composition based on local raw materials, which provides a high level of use of dyes in the cellulose component of mixed fiber materials. This article presents natural dyes and their possibilities of use.

Key words: dyestuff, natural dye, silk, sericin, raw silk, cooking silk, silk glue

KIRISH

ISSN 3030-3907

Aralash tolali mato tarkibidagi tashkil qiluvchilar nisbatini nazariy asoslash, paxta-ipak asosidagi aralash tolali to‘qimachilik materiallarni kimyoviy pardozlash jarayonida muqobil parametrlarni aniqlash, ularning mato sifatiga ta'sir darajasini aniqlash, bo‘yovchi moddani tolaga nisbatan diffuziyasi, sorbsiyasi, bog‘lanish darajasi, qimmat bo‘yovchi moddadan samarali foydalanish qonuniyatlarini o‘rganish, matematik modellarini yaratish o‘tamuhim masala hisoblanadi.

Respublikada keng turdagi sifatli to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilishini tashkil etish, paxta va ipak asosidagi to‘qimachilik materiallarini kimyoviy pardozlash texnika, texnologiyalarini takomillashtirish orqali eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda[1].

O‘simliklardan olingan bo‘yoqlar o‘simliklarning ildizlaridan, barglaridan, qobig‘idan, jarohatidan yoki mevalaridan olinadi [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bo‘yoqli o‘simliklar – tarkibida bo‘yoq moddalari bo‘lgan o‘simliklar. Bo‘yoq olishda bo‘yoq o‘simliklarning hamma qismlari (lishayniklarda) yoki bir organi (ildizi po‘stlog‘i, guli, bargi va h.k.) ishlatiladi. O‘simliklardan olingan tabiiy bo‘yoqlarning sifati, sun’iy (sintetik) bo‘yoqlarga nisbatan yuqori sifatli bo‘ladi. O‘zbekistonda ro‘yan, isiriq, o‘sma, anorlardan qizil bo‘yoq; yong‘oq, karmaklardan jigar rang va qora bo‘yoq; tut, olmalardan sariq bo‘yoq; gulxayridan ko‘k va binafsha bo‘yoq olinadi.

O‘simliklardan olingan tabiiy bo‘yoqlarning ko‘p turlari mavjud bo‘lib, qadimgi Xitoyda indigo, valerian, za’faron, komfri, yashil o‘t va skutellariya turlari bo‘lgan. Hayvonlardan olinadigan tabiiy bo‘yoqlar kamroq, asosan shellakli binafsha, karmin va boshqalarni misol qilish mumkin. Shu bilan birga, tabiiy bo‘yoqlarni ekstraktsiya qilish, ranglarni uyg‘unlashtirish va tabiiy bo‘yoqlarni matoga bosish uchun ishlab chiqarishda qo‘llash sintetik bo‘yoqlar kabi qulay bo‘lmasada, tabiiy bo‘yoqlarni qo‘llash bugunki kunning eng dolzarb masalaridan biridir.

Tabiiy bo‘yoqlar ko‘pgina o‘zining xususiyatlari bilan sintetik bo‘yoqlardan ustun turadi. 1996 yil Germaniya: ba’zi azo bo‘yoqlardan foydalanishni taqiqlay boshladilar, olimlar bu bo‘yoqlarning teratogen, kanserogen va inson tanasiga allergik ekanligini aniqladilar. Bu esa yashil bo‘yoqlarning ahamiyatini yanada oshiradi. Tabiiy bo‘yoqlar, ayniqsa o‘simliklardan olingan bo‘yoqlar, inson tanasi uchun juda xavfsiz yashil mahsulotdir va bo‘yoqlarni chiqarib oladigan ko‘plab o‘simliklar ma’lum shifobaxsh ta’siri bo‘lgan o‘simlik dorivor moddalari. Shu bilan birga, matolar sog‘liqni saqlashning muayyan funktsiyalariga ega bo‘lishi mumkin. Ko‘pgina o‘simlik bo‘yoqlari sintetik bo‘yoqlarning ajralib turadigan xususiyati bo‘lgan maxsus hidga ega.

ISSN 3030-3907

Tabiiy bo‘yoq matolarini afzal ko‘rgan ko‘plab iste’molchilar ushbu noyob xushbo‘y hidni jalb qilishadi. Shu sababli, so‘nggi yillarda dunyoda tabiiy bo‘yoqlar va tabiiy tolalarga qaytish to‘qimachilik moda tendentsiyasiga aylandi. Tabiiy bo‘yoqlar bilan bosilgan ipak va paxta kabi tabiiy tolali to‘qimachilik yuqori qo‘shimcha qiymatga ega yuqori sifatli moda mahsulotlariga aylandi va ularning bozor istiqbollari porloq. Tabiiy bo‘yoqlarni chop etishning eng mashhur usullari asosan bo‘yash va pardalarni bosib chiqarish, eng ko‘p ishlatiladigan tabiiy bo‘yoqlar o‘simliklardan olingan bo‘yoqlardir.

Ipak (pilla tolasi) — ingichka, pishiq, yaltiroq, tovlanib turadigan tola; ipak qurtining ipak ajratuvchi ikkita bezidan chiquvchi suyuqlikdan hosil bo‘ladigan tabiiy to‘qimachilik xom ashyosi. Ipak ipak qurti pillasini o‘rab turgan uzunasiga bir-biriga yopishmagan, seritsin (ipak yelimi) bilan qoplangan va yelimlangan ikki toladan iborat. Bu tolada 70—75% fibroin (oqsil modda), 20—25% seritsin, 2—3% turli mineral moddalar, 1 — 1,5% mum va yog‘lar bor. Ipak qurtining turiga qarab, pilla tolasining uzunligi 400—1500 m, ingichkaligini ifodalovchi ko‘rsatkich — metrik nomeri (№) 2500—3500 yoki 0,4—0,3 teks bo‘ladi. Bitta pilladan olinadigan tola juda ingichka bo‘lgani sababli sanoatda ishlatilmaydi. Pillakashlik fabrikasida pillani qaynatib, har bir pilladagi tola uchi topib, chuviladi. Tolalarning 5—10 tasi uzunasiga qo‘shib yigirilib, kalava holidagi xom ipak olinadi. Qaynatilgan pillaning ham-masidan Ipak chiqmaydi; pilla tolasining 10—15% g‘umbak bilan birga qoladi.

Ipak materiallarida rang to'yinganligiga erishilganda faol bo'yoqlarning irratsional sarfini kamaytirish imkoniyatlaridan biri bu matoni yakuniy tugatish jarayonida bo'yoqning keyingi o'rnatilishi bilan faol va asosiy bo'yoqlarning aralashmalaridan foydalanishdir.

Faol bo'yoqlar ipak materiallarida kuchli ranglar hosil qiladi, ammo to'yingan ranglarni olish uchun yuqori konsentrlangan eritmalar talab qilinadi va bunday eritmalarda bo'yoqdan foydalanish darajasi past bo'ladi.

Shuningdek, to'yingan va bardoshli ranglarni olish uchun tabiiy bo'yoqlar alohida qiziqish uyg'otadi. Ma'lumki, tabiiy bo'yoqlar bilan bo'yalgan matolar ish paytida inson tanasiga foydali ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda 300 dan ortiq turdagi bo'yoq o’simliklari o’sadi, shuningdek, ba'zi mevali o’simliklar va sabzavotlarning chiqindilari hosil bo'ladi, ular orasida anor qobig'i, piyoz po'stlog'i, yong'oq po’stlog'i va ularning barglari eng maqbuldir, ulardan foydalanish boy va bardoshli ranglarda bo’yash jarayonining samaradorligini ta'minlaydi. [3].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Eng qadimgi davrlardan boshlab odamlarda kiyimga ehtiyoj tug‘ilgan. Kiyim tayyorlash uchun foydalanilayotgan matoga ko’p narsa bog’liq. Hozirgi kunda teri, paxta, jun, ipak va sun’iy tolalardan mato tayorlanadi. Ular orasida ipak matolar

ISSN 3030-3907

o‘zining jilosi, pishiqligi, bejirimligi, ayniqsa, chiroyi bilan ajralib turadi. Ipak qadimdan odamlar hayotida muhim o’rin tutadi.

Xitoy adabiyotlarida pillachilik dastavval, bundan 4–5 ming yil ilgari Xitoyda paydo bo’lgan, keyin Turkiston va Yevropa davlatlariga tarqalgan deb yoziladi. Buning isboti uchun bir nechta ma’lumotlar keltiriladi. Masalan, 1958- yilda Chjejyang viloyati Usin tumanidan topilgan buyumlar orasida ipak mato va belbog’ ham bo’lgan. Hozircha ular Xitoy hududidan topilgan eng qadimiy ipak matolar hisoblanadi.

Xitoy olimlari tomonidan ipakchilikning qaysi hududda paydo bo’lgani to’grisida uch xil fikr mavjud. Birinchisi, ipakchilik dastlab Xuanxe daryosi bo’yida paydo bo’lgan. Bundan 4–5 ming yil oldin Xuanxe daryosining yuqori va o’rta oqimida turkiy xalqlar yashagan, xitoylar esa mazkur daryoning quyi oqimi janubida yashaganlar. Bu holda Xuanxe daryosi bo’yidagi ipakchilik madaniyati Xitoyga tegishli bo’lmay qoladi. Ehtimol bu, ipakchilik Yanszi daryosi bo’yida paydo bo’lgan degan ikkinchi nazariyaning paydo bo’lishiga olib kelgandir. Uchinchisi esa, bir vaqtning o’zida bir qancha hududlarda paydo bo’lgan. Biz uchinchi fikrni to’gri deb o’ylaymiz. Chunki, tut daraxti Xitoyning bir necha viloyatlarida, Xeshi yo’lagida, Taklamakon vohasida, Pomirning g’arbiy tomonidagi bir qancha joylarda o’sgan.

Ipak olish texnologiyasida birinchi navbatda ipakchilik shirkatlarda keltirilgan pilla tayyorlov jarayonlarida dastlabki ishlov berishda pilla g‘umbaki o‘ldiriladi va avval soyada, keyin issiq havoda yoki quritish joylarida quritiladi. Shirkatlardan pillani pillakashlik korxonalariga uzatiladi. Bu yerda pilla changdan tozalanadi, ustki qobig‘i shilib tashlanadi va katta-kichikligiga qarab sortlarga ajratiladi; sortlarga ajratish (kalibrovka) mashinasi qiya o‘rnatilgan va sekin aylanadigan uch seksiyali barabandan iborat.

Pillalar o‘lchamlariga qarab, baraban plankalari orasidan pastga tushadi. Ipak tarkibidagi fibroin va seritsin (ipak yelimi)ni ketkazish uchun pilla qaynoq suvda bug‘lanadi va bir necha ipak uchi topiladi, silkitiladi va bir necha ipak uchini birlashtirib, kalava qilib o‘raladi. Ipak yelimini ketkazish eritmaning qaynash haroratida olib borilgani uchun yelimsizlantirish jarayoni qaynash deyiladi. Qaynatish jarayoni 1 soat davomida 92-97 ℃ da tarkibida 14 gr/l 40%li olein sovuni va 0,5 gr/l soda bo‘lgan eritmada olib boriladi. Ammo qaynatish chog‘ida eritmaga o‘tgan turli-tuman moddalar gazlamaga sorbsiyalanadi. Ana shu sorbsiyalangan moddalarni ketkazish uchun gazlama yangi eritma bilan yana qaytadan qaynatiladi. Qaynatilgan matoni yana qaytatan qaynatish tarkibida 7-8 gr/l sovun va 0,4-0,5 gr/l soda bo‘lgan eritma bilan 20-30 daqiqa davomida 94-97 ℃ da olib boriladi. Qaynatilgan gazlama ammiakli suvda, so‘ngra suv bilan yuviladi. Bu usul bilan qaynatishda gazlama massasiga nisbatan 70 % gacha sovun sarflanadi, sifatli

ISSN 3030-3907

gazlama olinadi. Sovun o‘rniga turli SAM qo‘llash bilan yoki tarkibida har biri 0,005 dan 0,1 mol gacha karbonat va bikarbonatli bufer eritma bilan qaynatiladi hamda matoning mayinligini oshirish sovunli suv bilan ishlov beriladi.

Ipakni pishitish deganda xom ipak yoki kam pishitilgan kimyoviy ipakdan pishiq, tekis, zich va silliq ipak olish tushuniladi. Bunda bir necha xom ipak tolasi qo‘shib pishitiladi, pishitilish darajasi ipakning nomeriga va xom ipak tolasining qo‘shib pishitilishiga bog‘liq. Ipak maxsus mashinalarda , asosan, quruq holda pishitiladi. Pishitilgan ipak yechilmasligi uchun ularga termik yoki bug‘ bilan ishlov beriladi.

Yuqoridagi naqshlar asosida ayollarimiz so’zanalar, yostiq, turli sumkalar, sharflar va boshqa turdagi mahsulotlar tayyorlaydilar. Tabiiy ipakdan tayyorlangan mahsulotlarga bo’lgan qiziqish nafaqat o’z yurtimizda balki sayyohlar tomonidan juda yuksak etirof etilmoqda.

Tannin o‘simlik bo‘yoqlari odatda gidrolizlangan taninlarni o‘z ichiga oladi, ular osonlikcha bis-gallin kislotasini ishlab chiqarish uchun gidrolizlanadi va tolalarni bo‘yash uchun turli xil metal ionlarini murakkablashtiradi. Masalan, an'anaviy ipak mahsuloti yam, taninning temir kompleksi tomonidan qora rangda bo‘yalgan.

XULOSA

O‘simliklardan olingan bo‘yoqlar o‘simliklarning ildizlaridan, barglaridan, qobig‘idan, jarohatidan yoki mevalaridan olinadi. Kimyoviy tarkibiga ko‘ra ularni quyidagilarga bo‘lish mumkin: karotenoidlar, curcumin, antraquinonlar, indigo hamda xlorofil. Karotenoidlar o‘simlik barglarida, ildiz mevalarida va mevalarida keng tarqalgan. Ular ikkala luteinni ham o‘z ichiga oladi. Ular osongina oksidlanadi va kislotali sharoitda xiralashadi. Curcumin zerdekal o‘simligi va dorivor zerdekal ildizida mavjud. Ammo u nurga chidamli emas. Antrakuinon bo‘yoqlari o‘simlik ildizlarida mavjud. Ko’pchilik muhim tabiiy bo‘yoqlar aynan shunday kimyoviy tarkibiy qismlardan iborat. Antrakuinon bo‘yoqlari yaxshi yorug‘lik intensivligiga ega va metall birikmalarini hosil qilish oson. Indigo bo‘yoqlari asosan paxta bosib chiqarish va bo‘yash uchun ishlatiladi. Masalan, bugungi kunda bozorda keng tarqalgan an'anaviy ko‘k matolar indigo bilan bo‘yashdan keyin "ohak" bilan bo‘yalgan. Xlorofil - bu o‘simliklarning barglari va jarohatlaydi olingan yashil bo‘yoq. Yorqin rangga ega, ammo oson oksidlanadi.

Adabiyotlar:

1.M.Z. Abdukarimova, A.L. Hamroyev, A.A. Miratayev. Tolali materiallarni pardozlash kimyoviy texnologiyasi.”Mehnat” nashriyoti. Toshkent. 2004. -328 b.
2. Temirova M.I., Qodirov T.J. Charm va mo’yna texnologiyasi, o’quv qo’llanma TOSHKENT “TURON-IQBOL” 2005, 256 b.

ISSN 3030-3907

3. Курбанова Н.Т., Темирова М.И. Қоракўл териларини бўяшда табиий бўёқларни қўллаш. «Проблемы, инновационные предложения и решения в области химии и технологии нефти и газа» Сборник материалов международной научно-технической конференции. Бухара. 2023. С.353-357.

4. Rayimov, Z. X. O. G. L., Temirova, M. I., & Ravshanov, S. A. O. G. L. (2024). Tereftal kislota diglikol efiri va oligomerlarning polikondensatsiyalanish reaksiyasi katalizi. Science and Education, 5(2), 161-165.

ISSN 3030-3907

KALIY XLORID OLISH JARAYONIDA AJRALIB CHIQADIGAN LOYLI SHLAM CHIQQINDISINI TURLI XIL QO'SHIMCHALAR BILAN QAYTA ISHLASH USULINI O'RGANISH

Shodiyev.A.Z.,Maxmudov.R.A.

Buxoro Muhandislik texnologiya instituti.

Annotatsiya, Kaliy xlorid ishlab chiqarish jarayonida ajralib chiqadigan shlam chiqqindisi, suyak uni, ko'mir kukuni,natriy gidroksid eritmasi yordamida o'simliklar hayot faoliyati yaxshilashda ularning o'sishi, rivojlanishi, ko'p xosil berishi uchun tuproq unimdorligini yaxshilovchi tarkibida mikro va makroelementlar saqlaydigan kompleks mineral o'g'it ishlab chiqarish uchun o'rganilayotgan ob'ektlarning tarkiblari IQ-spektroskopiya, elektron mikroskopik va elementlarning energiya dispersiv rentgen spektral tahlil qurilmalari yordamida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Shlam,suyak uni,ko'mir kukini,o'yuvchi natriy, transmittance, IQ-spektroskopiya, to'lqinlar.

Аннотация. Для производства комплексных минеральных удобрений, содержащих микро- и макроэлементы, улучшающие плодородие почвы для роста, развития растений, многоплодия с использованием раствора шламовых отходов, костной муки, угольного порошка, гидроксида натрия, которые разделяются в процессе производства хлорида калия, IQ-спектроскопии, электронной микроскопии и энергодисперсионного рентгеновского излучения элементов. Изучено с помощью приборов спектрального анализа.

Ключевые слова: Суспензия, костная мука, угольный порошок, коррозионный натрий, пропускание, IQ-спектроскопия, волны.

Annotation. For the production of complex mineral fertilizers containing micro- and macroelements that improve soil fertility for growth, development of plants, multiple fruits using a solution of sludge waste, bone meal, coal powder, sodium hydroxide, which are separated in the process of potassium chloride production, IQ spectroscopy, electron microscopy and energy-dispersive X-ray radiation of elements. Studied using spectral analysis instruments.

Keywords: Suspension, bone meal, charcoal powder, corrosive sodium, transmission, IQ spectroscopy, waves.

Hozirgi kunda dunyo aholisi sonining keskin ortib borishi, ishlab chiqarish sohalarini kengayib borishi hamda ishlab chiqarishda hosil bo'ladigan chiqqindi maxsulotlarni qayta ishlash eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Kaliy sanoatida xomashyoni qayta ishlash va boyitish jarayonida katta tonnali qattiq galit chiqindilari hosil bo'lib, ular chiqindixonalarga yuboriladi. 1 tonna KCl olinganda 3-4 tonna chiqindi hosil bol'adi. Asosiy komponent NaCl (90% gacha) bilan bir qatorda ular KCl, CaSO4, $MgCl_2$, Br va erimaydigan moddalarni o'z ichiga oladi.

ISSN 3030-3907

Tuproqning sho‘rlanishiga, yer usti va yer osti suvlarining minerallashuvining kuchayishiga sabab bo'ladigan kaliy korxonalari yaqinida tuz chiqindilari to'plangan.Ishlab chiqilgan texnologiya asosiy ishlab chiqarishdagi galit chiqindilarini qayta ishlash, qo'shimcha miqdorda kaliy xlorid olish va shu bilan silvinitdan kaliy xloridni olish darajasini oshirish imkonini beradi [1].Taklif etilayotgan texnologiyaning mohiyati galit chiqindilarini natriy xloridning to'yingan eritmasi bilan yuvishdir. Shu bilan birga, galit chiqindilaridagi kaliy xlorid natriy xloridning to'yingan eritmasiga o'tadi va kaliy xlorid konsentratsiyasi oshadi va natriy xlorid cho'kadi [2]. Taklif etilayotgan usulga ko‘ra, asosiy ishlab chiqarishning galit qoldiqlari ularni kaliy xloriddan yuvish, suvda erimaydigan qoldiqni, organik komponentlarni ajratish, shuningdek, natriy xloridning to'yingan eritmasini tayyorlash uchun xom ashyo sifatida ishlatiladi.Ushbu texnik yechim tufayli natijada natriy va kaliy xlorid tuzlari bilan to‘yingan eritma va asosan natriy xloriddan iborat tuz cho‘kmasi olinadi.Qo‘shimcha ishlovsiz ma'lum miqdorda galit chiqindilari yo‘l va kommunal xo‘jaligida, shuningdek, tog‘-kon sanoatida qo‘llanilishi mumkin. Biroq, bu tarmoqlardagi talab hosil bo'ladigan chiqindilar umumiy miqdorining 30-35% dan oshmaydi. Qolganlari qayta ishlanishi yoki utilizatsiya qilinishi bo’yicha shu kabi ilmiy tadqiqotlar olib borilgan 1-jadval.

1-jadval

Loyli shlamning umumiy kimyoviy tarkibi


t/r	Ko`rsatgichlar	Tahlil natijasi,o`rtacha %
1	KCL	13,69
2	NaCL	48,7
3	s.e.q (n.o)	36,4
4	$CaSO_4$	1,8

Yuqoridagi jadvaldan ko’rinib turibtiki shlam chiqindini qayta ishlashdan oldin biz uning tarkibini zamonaviy qurilmalar yordamida tekshirib so’ngra uning tarkibida asosiy қисмини ташкил қилиб turgan NaCl birikmasининг юқорилиги ва bu birikmani shlam tarkibida миқдорий ўзгартириш муаммосини ҳал қилишимиз керак бўлади. NaCl birikmasiни shlam tarkibidan tozalab olish uchun biz asosan турли хилдаги kislotaлapdan foydalanamiz va bu juda samarali usul hisoblanib amalda chiqindisiz texnologiyaga айлантириш mumkin va buнинг uchun uning tarkibini zamonaviy spektrlar va mikroskoplar yordamida aniqlaymiz. Dastlabki xom-ashyolar va olingan o‘g‘it namunasining tuzilishini IQ spektroskopiya usuli yordamida tahlil qilib o‘rganildi. Buning uchun avvalo dastlabki xom-ashyolar loyli shlam chiqqindisi,suyak kuli,ko’mir kukini,o’yuvchi

ISSN 3030-3907

natriy va o‘g‘it namunalari IQ spektrlari olinib solitirildi, yutilish chiziqlari orqali yangi hosil bo‘lgan bog‘lar aniqlandi.


Dastlab mineral o‘g‘it olishda ishlatilgan loyli shlam chiqqindisining IQ spektr tahlili olindi (1-rasm).



1-rasm. Loyli shlamning IQ spektri

Loyli shlamning IQ spektr tahlili bo‘yicha 2900-2800 sm^{-1} (ν) va 1000-900 sm^{-1} (δ_s) sohalarda amino guruhga tegishli yutilish chiziqlari hosil bo‘lgan 800-700 sm^{-1} da (ν) va 600-500 sm^{-1} sohalarda esa (δ_s) molekuladagi (C-N) guruhlariga tegishli teskari sm^{-1} sohadagi bog‘lanishlar borligini kuzatildi.

Miqdoriy tahlil qilish uchun turli elementlarning energiya dispersiv rentgen spektri olindi. Spektrda loyli shlam chiqqindisining sirt yuzasida mavjud asosiy elementlarning energiya darajalariga mos keluvchi cho‘qqilar hosil bo‘ldi (2-rasm).



ISSN 3030-3907

2-rasm.Loyli shlam elementar tarkibining EDS (Energy-Dispersive X-ray Spectroscopy) tahlili

2-rasm asosida o'tkazilgan tahlillar natijasida mavjud elementlarning konsentratsiyalari aniqlandi (2-jadval).


2-jadval

Loyli shlam chiqindisini kimyoviy tahlil natijalari

Moddaning elementar tarkibi	Moddaning aniqlash chizig`i	Massa (%)	Atom%
C (uglerod)	K	7.96±0.02	13.74±0.04
O (kislorod)	K	36.04±0.03	46.68±0.04
Na (natriy)	K	14.65±0.02	13.21±0.01
Mg (Magniy)	K	3.99±0.01	3.40±0.01
Al (alyuminiy)	K	2.78±0.01	2.14±0.01
Si (kremniy)	K	5.74±0.01	4.24±0.01
S (oltingugurt)	K	1.36±0.00	0.88±0.00
Cl (xlor)	K	21.94±0.02	12.83±0.01
K (kaliy)	K	3.52±0.01	1.87±0.00
Ca (kalsiy)	K	1.91±0.01	0.99±0.00
Ti (titan)	K	0.09±0.00	0.04±0.00
Umumiy	K	100.00	100.00

2-jadvaldagi loyli shlam chiqqindisining sirt yuzasida K elementiga nisbatan Na elementi miqdorining yuqori bo‘lishi bu loyli shlam chiqqindisining aynan natriyli loyli shlam chiqqindisi turi ekanligini ko‘rsatadi.


Loyli shlam chiqqindisining 10 va 20 μm o‘lchamlardagi SEM tahlili olindi (3-rasm).



3-rasm. Loyli shlam chiqqindisining 10 va 20 μm o‘lchamlardagi SEM tahlili


ISSN 3030-3907

Loyli shlam chiqqindisining tarkibni aniqlab olgandan so’ng suyak kuli va ko’mir kukinlarini ham IQ spektroskopiya usuli yordamida tahlil qilib o‘rganildi 4-5-rasmlar.



4-rasm. Suyak unining IQ spektri

Suyak unining IQ spektr tahlili bo‘yicha 3800-2600 sm^{-1} (ν) va 1300-1250 sm^{-1} (δ_s) sohalarda amino guruhga tegishli yutilish chiziqlari hosil bo‘lgan va 700-450 sm^{-1} sohalarda esa (δ_s) molekuladagi (C-N) guruhlariga tegishli teskari sm^{-1} sohadagi bog‘lanishlar borligini kuzatildi.Yuqoridagi natijalardan ko’rinib turibtiki suyak uni assosan anorganik moddalardan iborat bular kalsiy fosfat va boshqa ko’pgina minerallardan iborat ekanligini ko’rishimiz mumkin.



5-rasm. Ko’mir kukinining IQ spektri

5-rasmda ko’mir kukini IQ-spektroskopiya tahlili bo‘yicha ko’mir kukuni tarkibi uglerod va ozuqa moddalarga boy ekanligi yuqoridagi taxlilda ko’rinib turibti bu moddalar o’simliklar unumdorligi uchun kerakli shuning uchun ushbu o’g’itimizni olish uchun ko’mir kukuni ishlatamiz.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki silvinit rudasini qayta ishlab kaliy xlor olishda ajralib chiqadigan loyli shlam chiqqindisini turli xildagi

ISSN 3030-3907

mineral qo‘shimchalar bilan qayta ishlov berib, kelgusida yangi turdagi kompleks mineral o‘g‘itlar olishni yo‘lga qo‘yish, qishloq xo‘jaligini mineral o‘g‘itlarga bo‘lgan ehtiyojini qoplash bilan bir qatorda kimyosanoati oldida turgan eng dolzarb masalalarni yechimini topishga qo‘yilgan muhim natijalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. A.Z.Shodiyev, N.K.Baxshilloyev, R.A.Maxmudov. Silvinit rudasidan kaliy xlorid ishlab chiqarish jarayonida ajralib chiqadigan shlam chiqqindisi tarkibini o‘rganish va undan foyali mineral birikma olishda foydalanish.“Oziq-ovqat, kimyo va neft gaz sanoatining innovatsion texnologiyalari va dolzarb muammolari”.Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnikaviy anjuman Maqolalar to‘plami.Buxoro sh 2024 yil 13-15 iyun.
2. P.Larkin. Infraqizil va Raman spektroskopiyasi : printsiplari va spektral talqini.Elsevier, 2011 yil.73-75 b
3. https://www.shimadzu.com/an/products/spectro/ftir/irspirit-t/index.html
4. 1. Sh.J Sharipov ,A.Z.Shodiyev Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar, nazariy va amaliy strategiyalar tadqiqi sonli respublikasi ko‘p tarmoqli, ilmiy konferensiya № 1 24sentabr 2022-yil.B.398-404 www.ojs.rmasav.com 2.
5. Fatilloyev, Shamshod Fayzullo o‘gli, Bexzod Mavlon o‘gli Aslonov, va Alisher Kamilovich Niyozov. "изучение механических свойств кожи обработанными полимерными композициями." Universum: технические науки 11-4 (80) (2020): 49-51.

ISSN 3030-3907